Matematika

II qism

3



novda
edutainment

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

I. V. Repyova

Matematika
3-sinf
II qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi qoshidagi Ilmiy-metodik kengash
tomonidan tavsiya etilgan

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
TASDIQLANGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG‘ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI BO‘LIMI
33-UMUMIY
O‘RTA TA’LIM
MAKTABI
№ 53
6. 11 23

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 51(075.3)
KBK 22.1ya72
R 42

Repyova I.V.
Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, II qism. / I.V.Repyova. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 100 b.

Taqrizchilar:

Sh.Y.Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M.A.Raxmanova – Toshkent shahridagi 256-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

Sh.X.Ergasheva – Toshkent shahridagi 275-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:

 – yozma bajaring;

 – juft bo'lib ishlang;

 – og'zaki bajaring;

 – mantiqiy topshiriq;

 – uyga vazifa.

Eslatma: O'lchov birliklaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kattalik birliklarini qo'llash to'g'risida"gi 10.01.2018-yil 21-sonli qaroriga muvofiq foydalanildi.

ISBN 978-9943-9704-7-2

© I.V. Repyova
© "Novda Edutainment", 2023

Muqaddima

Darslikning ikkinchi qismida katta sonlarga ko‘paytirish va bo‘lish qoidalarini batafsil o‘rganib olasiz. Har qanday sonni bir-biriga bo‘lish va ko‘paytirishni o‘rganasiz. Nima uchun ba’zi sonlarni ba’zi sonlarga bo‘lib bo‘lmasligini, qoldiq nimaligini bilib olasiz. Turli murakkab shakllarning perimetrini, maydonini topishni o‘rganasiz. Turli kasblarni eslab, matematika ularga qanday yordam berishini bilib olasiz. Tabiiy resurslar bilan tanishib, ona tabiatning boyligini asrashni o‘rganishda davom etasiz.



40. Yig‘indini songa bo‘lish






Yondosh mavzu:
o‘qituvchi.

Yig‘indi, qo‘shiluvchi,
to‘liq bo‘linish.


1. O‘qituvchi zanjir bo‘yicha amallarni bajarishni buyurgan edi, Akmalda 16 chiqdi. Akmal amallarni to‘g‘ri bajardimi?



2. O‘qituvchi sinfdagi uchta qatorga misollar yozilgan rangli varaqachalarni teng tarqatdi. Hammasi bo‘lib 12 ta ko‘k, 18 ta sariq, 6 ta yashil varaqacha bor edi. Har bir qatordagi o‘quvchilar nechtadan varaqacha olgan?

Aziza masalani bunday yechibdi:
(12 + 18 + 6) : 3.

Madina esa bunday yechibdi:
12 : 3 + 18 : 3 + 6 : 3.



Kim to‘g‘ri yechgan?



Yig‘indini biror songa bo‘lish uchun har bir qo‘shiluvchini shu songa bo‘lib, bo‘linmalarni qo‘shish mumkin. Tekshirib ko‘ring:

(30 + 18) : 6 = 30 : 6 + 18 : 6 = 5 + 3 = 8
(30 + 18) : 6 = 48 : 6 = 8

3. Misollarni ikki xil usul bilan yechib ko‘ring. Har bir misolda qaysi usul osonroq ekan?

(30 + 40) : 10 (60 + 8) : 2 (28 + 56) : 7

4. Misollarni o‘zingizga qulay usulda yeching. Nimani sezdingiz? Xulosa chiqaring. Bu yerda qaysi varaqacha ortiqcha ekan? Nima uchun?

O‘qituvchi	Pedagog	Olim	O‘qituvchi
(42 + 36) : 6	(54 + 18) : 9	(24 + 21) : 5	(30 + 12) : 6

5. Ifoda tuzing va uni qulay usulda hisoblang.

a) Sinfda 14 ta qiz bola, 16 ta o‘g‘il bola bor. Ingliz tilini o‘rganish uchun sinf ikkita teng guruhga bo‘lindi. Har bir guruhda nechtadan o‘quvchi bor?

b) Maktabdagi tanlovda 12 ta katta sinf va 8 ta o‘rta sinf qatnashadi. Saralash bosqichida har bir sinfdan 4 tadan jamoa qatnashdi. Nechta saralash o‘yinlari o‘ynalgan?

6. Madina, Aziza va Umidada har xil rangdagi qisqichlar bor. Har bir qizda har bir rangdan nechtadan qisqich borligini sanashga yordam bering.

Qizlar qisqichlarni teng bo‘lib olishdi. Har bir qizga nechtadan qisqich to‘g‘ri kelgan?



7. O‘qituvchi har kuni qancha vaqt ishlaydi? Uning ish me’yori kuniga 8 soat bo‘lishi kerak. Uning ish vaqtini me’yordagi vaqt bilan solishtirib ko‘ring.

Ish rejasi	
Dars o‘tish	5 h
Daftar tekshirish	2 h 30 min
Qoloq o‘quvchilar bilan ishlash	40 min
Darslarga tayyorlanish	2 h 20 min

8. Rasmda kvadrat shakldagi stol tasvirlangan. Mana shunday stollardan 9 tasini bir-biriga taqab, bir qator qilib qo‘yishdi. Endi bu uzun stol atrofida necha kishi o‘tirsa bo‘ladi?



9. Qulay usulda hisoblang. Qiymatlarni kamayish tartibida qo‘yib chiqing. Qadimgi Yunonistonda arifmetika o‘qituvchisi qanday nomlanganini toping.

R (40 + 30) : 10
TO (800 + 600) : 100
KA (300 + 200) : 10
KU (120 + 16) : 4
L (120 + 21) : 3
LA (40 + 24) : 2

10. Kompleks masala.

a) Jadvalga qarab, maktabda jami nechta sinf borligini aniqlang.

Boshlang‘ich sinflar (1–4 sinflar)	O‘rta sinflar (5–9 sinflar)	Katta sinflar (10–11 sinflar)
24 ta sinf	16 ta sinf	8 ta sinf

b) Har bir sinfda 2 tadan ingliz tili guruhi bor. Maktabda jami nechta ingliz tili guruhi bor?

d) Bitta o‘qituvchi 8 ta guruhga dars o‘ta olsa, maktabda nechta ingliz tili o‘qituvchisi ishlashi kerak?

41. Ikki xonali sonni bir xonali songa bo‘lish

Yondosh mavzu:
shifokor, doktor.

Yig‘indi, o‘nliklar, birliklar,
yig‘indini songa bo‘lish.





1. Dorixonachi dorilarni peshtaxtaga bir necha qator qilib taxlayapti. Har bir qatorda nechta dori qutisi turibdi?



6 qatorda
42 quti



3 qatorda
18 quti



5 qatorda
75 quti

Qaysi qator boshqalaridan ajralib turibdi?

2. Hisoblashni davom ettiring. Nimani sezdingiz?

a) 68 : 2 = (60 + 8) : 2
b) 78 : 3 = (60 + 18) : 3
d) 145 : 5 = (150 – 5) : 5
e) 126 : 7 = (140 – 14) : 7



Bo‘linuvchini bo‘lish qulay bo‘lgan sonlar yig‘indisi yoki ayirmasi ko‘rinishiga keltirish mumkin.

168 : 6 = (120 + 48) : 6 = 120 : 6 + 48 : 6 = 20 + 8 = 28
168 : 6 = (180 – 12) : 6 = 180 : 6 – 12 : 6 = 30 – 2 = 28

3. Bo‘linmani yig‘indi yoki ayirma ko‘rinishiga keltirib hisoblang.

a) 44 : 4 b) 63 : 3 d) 72 : 6 e) 95 : 5

4. Ifodani yozing va hisoblang.


a) 7 quti dori uchun 91 ming so‘m to‘landi. Bitta quti qancha turadi?

b) 52 ta “Tez yordam” mashinasini 4 ta stansiyaga teng bo‘lishdi. Har bir stansiyaga nechtadan mashina berilgan?

d) 84 metrlik dokani qirqib, 6 metrlik bint tayyorlandi. Bitta dokadan nechta bint chiqar ekan?

5. Kasalxona uchun 135 ta termometr sotib olindi. Termometrlar bir xil qutilarga bir necha donadan solingan ekan. Birinchi bo‘limga 2 quti, ikkinchi bo‘limga 3 quti, uchinchisiga esa 4 quti yuborildi. Har bir qutida nechtadan termometr bor?

Yechish uchun quyidagi chizmadan foydalaning.



6. Tenglamalarni yeching. Javobini tekshiring.


$5 \cdot x = 225$ $749 : y = 7$ $z : 8 = 56$


7. Hisoblang. Dori tayyorlovchi mutaxassisni nima deb atash mumkinligini toping.

A $70 \cdot 9 + 195$
E $25 \cdot 8 - 163$
S $69 \cdot 8 - 128$
M $57 \cdot 8 + 229$
R $600 : 2 + 127$
V $1800 : 3 - 144$
F $5600 : 80 + 830$
T $8000 : 8 - 210$

900	825	427	685	825	790	424	37	456	790


8. Misollar to‘g‘ri yechilganini tekshirib ko‘ring. Xato hisoblangan misollarni boshqatdan yeching.








9. Har bir chizma uchun ifoda tuzib, uni yeching.





10. Shifoxonada havoni tozalash apparati minut mili 3 bilan 4 o‘rtasida yoki 8 bilan 9 o‘rtasida turganida ishga tushib ketadi. Bu apparat bir sutkada necha soat ishlaydi?



11. Bo‘linuvchini yig‘indi yoki ayirma shakliga keltirib hisoblang.

76 : 4	42 : 3	99 : 9	85 : 5
132 : 3	470 : 5	144 : 9	171 : 3

12. Bemorga kuniga 4 ta dori ichish buyurildi. Dorilar ikkita idishga solingan. Ularning biriga 80 ta, ikkinchisiga undan 56 ta kam dori solingan. Bemor bu dorilarni necha kun ichadi?

42. Qoldiq





Yohdosh mavzu:
sport trenerlari.

Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.

1. Trener 9 ta bolani ikki jamoaga ajratib, har biriga 4 tadan bolani kiritdi. Hamma bolalar ham jamoaga kira oldimi?



Bu bolalarni nechta jamoaga ajratsak, har bir jamoadagi bolalarning soni teng bo‘ladi?

Bo‘linuvchi bo‘luvchiga butun bo‘linmasa, bu holat qoldiq bilan bo‘lish deb ataladi.
Qoldiqli bo‘lish mana shunday ifodalanadi:



9 : 2 = 4 (qoldiq 1).
9 sonini 2 soniga bo‘lsak, to‘liqsiz bo‘linma 4 chiqadi, 1 esa qoldiq sifatida qoladi.

Bu holatda bo‘linuvchi bo‘luvchiga butun bo‘linadi, qoldiq esa qolmaydi, ya’ni qoldiq 0 ga teng bo‘ladi.
Bu holatda qoldiq yozilmaydi: 9 : 3 = 3.

2. 26 ta futbol to‘pi qutilarga 6 tadan solinyapti. Nechta to‘p ortib qoladi? Buni qoldiqli bo‘lish shaklida yozib qo‘ying.



3. Trenerda 19 ta raketka bor. U raketkalarni juft-juft qilib taxlasa, nechta raketka ortib qoladi? To‘g‘ri javobni toping.

19 : 2 = 8 (qoldiq 3) 19 : 2 = 5 (qoldiq 9) 19 : 2 = 9 (qoldiq 1)



Bo‘lishda qoldiq doim bo‘luvchidan kichik bo‘ladi.
47 : 5 = 9 (qoldiq 2)
2 qoldiq bo‘luvchi 5 dan kichik.

4. Suratga qarab, bo‘lishni bajaring. Yechimni daftarga yozing.

7 : 2



9 : 5



8 : 3




8 : 4



5. Sonni 5 ga bo‘lganda necha qoldiq qolishi mumkin? 3 ga bo‘lganda-chi? 9 ga bo‘lganda-chi? Misollar keltiring.

6. To‘rt xonali sonlarni o‘sib borish tartibida joylashtiring. Qanday so‘z hosil bo‘ldi? Bu numani bildiradi?



U	89 520 – 87 146	**S**	885 + 783
I	40 300 – 39 325	**M**	19 005 + 14 621
V	7 766 + 1 982	**Z**	31 789 – 27 408
SH	25 859 – 16 147	**I**	51 003 – 45 733

7. Velopoygada Osiyodan 64 ta sportchi qatnashyapti. Yevropalik sportchilar esa ulardan 3 baravar ko‘p. Amerikalik sportchilar esa osiyoliklardan 14 ta kam. Barcha sportchilarni uch kishilik guruhlarga ajratsak, nechta guruh hosil bo‘ladi?

8. Har 4 yilda bir marta o‘tkaziladigan eng yirik xalqaro sport musobaqalari nima deb atalishini toping. Bu musobaqalarda qo‘lga kiritilgan medal sportdagi eng katta yutuq hisoblanadi.

A 630 : 9 + 140 : 20
D 12 · 6 + 14 · 8
E 900 : 10 – 250 : 50
L 37 · 3 – 14 · 5
I 720 : 8 + 560 : 70
M 55 · 6 – 42 · 4
O 450 : 5 – 350 : 7
P 83 · 4 + 12 · 8

40	41	98	162	428	98	77	184	77

9. Aziz, Bahrom va Doston yugurishda qatnashishdi. Oldin Aziz, keyin Bahrom, keyin Doston yugurdi. Yo‘lda Azizdan 3 marta, Bahromdan 5 marta, Dostondan esa 8 marta o‘zib ketishdi. Bolalar finishga qanday tartibda yetib kelishdi?

10. Suratga qarab, bo‘lishni bajaring: shakllarni daftarga ko‘chirib olib, namunadagidek guruh-guruh qilib (har bir guruhni o‘z rangiga) bo‘yab chiqing.

Namuna:

12 : 5 

16 : 7 

13 : 4 

16 : 3 

15 : 2 

11. Musobaqada 42 ta mamlakat qatnashyapti. Har bir mamlakatdan 12 tadan sportchi va 3 tadan trener kelgan. Ular mehmonxonaning 9 ta qavatini to‘liq egallashdi. Mehmonxonaning har bir qavatida nechtadan xona bor?

Yondosh mavzu:
ishchi.

Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.





1. Tokar maxsus dastgohda metall detallarni yo‘nib, tayyor detallarni har bir qutiga 4 tadan joylayapti. Nechta quti kerak bo‘ladi?



Nechta detal ortib qoladi? 2 ta qutiga qoldiqsiz joylash uchun detallar nechta bo‘lishi kerak? 3 ta qutiga joylash uchun-chi?

Qoldiqli bo‘lish algoritmi

1) Bo‘linuvchidagi bo‘luvchiga bo‘linadigan eng katta sonni toping.
2) Bu sonni bo‘luvchiga bo‘lgandagi bo‘linmani toping.
3) Bo‘linuvchidan ana shu topilgan sonning ayirmasi qoldiq bo‘ladi.
Masalan: 31 ni 8 ga bo‘lamiz.



1) 31 dan kichik bo‘lgan va 8 ga bo‘linadigan eng katta sonni topamiz. Bu – 24 dir.
2) Uni 8 ga bo‘lamiz: 24 : 8 = 3
3) Qoldiqni topamiz: 31 – 24 = 7
31 : 8 = 3 (qoldiq – 7)

2. Quyidagi sonlarni toping:

a) 19 dan katta bo‘lmagan, 3 ga bo‘linadigan;
b) 28 dan katta bo‘lmagan, 5 ga bo‘linadigan;
d) 16 dan katta bo‘lmagan, 7 ga bo‘linadigan;
e) 76 dan katta bo‘lmagan, 9 ga bo‘linadigan?
Har safar qaysi son qoldiq qolyapti?

3. Qoldiqli bo'linadigan sonni yozib oling. Sababini tushuntiring.

73 : 8 96 : 9 58 : 7 64 : 6 21 : 5

4. Qoldiqli bo'lishni teskari amal bilan – bo'luvchini bo'linmaga ko'paytirib, qoldiqni qo'shish bilan tekshirib ko'rsak bo'ladi. Namunaga qarab, bo'lishni tekshirishni o'rganib oling.



21 : 4 = 5 (qoldiq 1) 4 · 5 + 1 = 21

Qoldiqli bo'lishni bajarib, keyin uni tekshirib ko'ring.

65 : 7 39 : 9 62 : 6

5. Ifoda tuzib, qiymatini hisoblang.

a) Bitta o'yinchoqni yig'ish uchun 6 ta vint kerak. Ustaning qutisida 50 ta vint bor. 3 ta o'yinchoqni yig'gandan keyin nechta vint qoladi?



b) Javonga bitta kichik tokcha o'rnatish uchun 4 ta, katta tokcha o'rnatish uchun esa 7 ta burama mix kerak. 4 ta kichik, 2 ta katta tokcha o'rnatish uchun nechta burama mix kerak?



6. Hisoblang. Maxsus dastgohda metall yoki yog'ochdan detallar qirqadigan ustani nima deymiz?

A 490 : 70 · 25
V 8 100 : 9 – 153
E 600 : 30 · 71
Z 420 : 7 + 274
I 5 600 : 80 · 40
L 20 · 30 – 479
O 3 · 500 + 151
R 40 · 4 – 28
F 40 · 90 : 60
CH 60 · 80 : 400

60	132	1420	334	155	121	1651	747	12	2800


7. Amallar tartibiga rioya qilib, misollarni yechsangiz, kasblardan birining nomi kelib chiqadi.

920 750 – 400 · (450 : 90 + 789) + 62 · (225 + 175)


N 24 800	**I** 794	**G** 603 150	**A** 317 600
L 400	**R** 342 400	**Ch** 5	**A** 627 950


8. Metall yoyuvchi usta metallni yupqa qilib yoydi. Yoyilgan metallning yuzini toping. Qaysi birining yuzi kattaroq?





9. Kub yoyilmasini yelimlab, kub hosil qilindi uning ko‘rinishi qanday bo‘ladi?





10. Qoldiqli bo‘lishni bajarib, keyin tekshirib ko‘ring.

48 : 7	37 : 6	71 : 7
95 : 9	64 : 8	32 : 5

11. Katta temirdan 8 ta, kichkinasidan esa 5 ta kam detal qirqib olish mumkin. 40 ta katta va 27 ta kichkina temir bo‘ladigan jami nechta detal qirqib olish mumkin?

44. Burchakli bo‘lish



Yondosh mavzu:
yengil sanoat ishchilari.

Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.

1. Qaysi sonlar 5 ga qoldiqsiz bo‘linadi? Ularning nimasi bir xil?

55 47 59 85 75 29 31 45 15

2. Bichuvchi gazmolni kesib, ko‘ylakning bo‘laklarini ajratib oladi. Bitta ko‘ylakka 3 m gazmol ketadi. 27 m gazmoldan nechta ko‘ylak chiqadi? 36 m gazmoldan-chi? 25 m gazmoldan-chi?



3. Bo‘lishni yozishning uch xil usulini o‘rganib oling. Ularning nimasi bir xil, nimasi har xil?

96 : 3 = (90 ōnl. + 6 birl.) : 3 =
= 90 ōnl. : 3 + 6 birl. : 3 = 30 ōnl. + 2 birl. = 32

96 : 3 = (90 + 6) : 3 = 90 : 3 + 6 : 3 = 30 + 2 = 32


$$\begin{array}{r|l} 96 & 3 \\ \hline -9 & 32 \\ \hline 6 & \\ -6 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

Bo‘lishni uch usulda bajaring.

86 : 2 63 : 3 48 : 4

Burchakli bo‘lish

Bo‘linuvchini burchakdan chapga, bo‘luvchini burchakka yozamiz.
Bo‘lishni chapdan o‘ngga qarab, katta xonali sonlardan boshlaymiz.
Avval katta xonali sonni bo‘luvchiga bo‘lib, hosil bo‘lgan bo‘linmani burchak ostiga yozib boramiz.
Bu sondan ayirma va bo‘luvchining ko‘paytmasini ayiramiz.
Qolgan xonali sonlarda ham xuddi shu amallarni takrorlaymiz.





4. Burchakli bo‘lishni bajaring.

9 663 : 3 8 442 : 2 66 993 : 3

5. Tenglamalarni yeching.

$x + 2\,678 = 46\,464 : 2$ $50\,000 - y = 84\,848 : 4$

6. Chizmalar bo‘yicha ifodalar tuzib, ularni hisoblang.





Jami: 669 kg.
Bir qopda – ?




Jami: 484 m.
Bir o‘ramda – ?

7. Ifodani soddalashtiring.

$a + 369 : 3 + 202 : 2$ $484 : 4 - 555 : 5 + b$

$m + 505 : 5 + 909 : 9$ $626 : 2 - 808 : 8 + n$



8. Ifodalar tuzing.

a) Do‘kondagi peshtaxtada a juft tufli bilan *b* juft shippak turibdi. Peshtaxtada jami necha juft poyafzal turibdi?


b) Fabrikadagi ishchi har bir qutiga 3 tadan ro‘molcha taxlaydi. *n* ta ro‘molcha uchun nechta quti kerak bo‘ladi?

d) Bo‘yinbog‘ bilan ikkita ilma tugma bir to‘plam hisoblanadi.

m ta bo‘yinbog‘ uchun nechta ilma tugma kerak bo‘ladi?



9. Kastumning har bir bo‘lagi uchun ikki tomonidan 3 cm joy tashlash kerak bo‘lsa, uni tikish uchun ketadigan gazmolning uzunligini toping.



10. To‘rt nafar to‘quvchi navbat bilan gilam to‘qidi. Ularning har biri qolgan uch to‘quvchi birgalikda ishlab, qancha vaqt sarflagan bo‘lsa, shuncha vaqt sarfladi. Agar hammalari birga to‘qishsa, gilamni necha marta tezroq to‘qib bo‘lishadi?

11. 12 metrlik matodan 4 ta ko‘ylak tiksa bo‘ladi. 28 ta ko‘ylak uchun qancha mato kerak bo‘ladi?

12. Tenglamalarni yeching. Javobini tekshiring.

$x - 456 = 228 : 2$ $\qquad$ $900 - y = 636 : 3$


Yondosh mavzu:
sotuvchilar.

Son xonalari, bo‘linuvchi,
bo‘luvchi, bo‘linma.





1. Juft raqamli qutilarni o‘sish tartibida belgilang. Do‘konning ombordagi zaxiralarini nazorat qiluvchi xodim qanday nomlanadi?




2. Hisoblang. Qaysi holatda bo‘linmani topa olmadingiz yoki topishga qiynaldingiz?

600 : 30	720 : 9	3600 : 300
700 : 7	820 : 10	255 : 3

3. 825 soni 3 ga qanday bo‘linganini tekshirib ko‘ring. Ikkala usulni solishtiring. Ularning nimasi bir xil?


8 yuzl. + 2 o‘nl. + 5 birl. | 3
− 6 yuzl. | 2 yuzl. 7 o‘nl. 5 birl.
2 yuzl. + 2 o‘nl.
− 22 o‘nl.
21 o‘nl.
1 o‘nl. + 5 birl.
− 15 birl.
15 birl.
0



Burchakli bo‘lish algoritmi

1. Bo‘linuvchining tarkibini o‘rganib chiqamiz.
Bu sonda 7 ta yuzlik, 5 ta o‘nlik va 6 ta birlik bor ekan.
2. To‘liqsiz bo‘linuvchini topamiz.
Bu sonda 7 ta yuzlik bor. 700 ni 4 ga qoldiq bilan bo‘lish mumkin. Demak, 7 – to‘liqsiz bo‘linuvchi ekan.
3. To‘liqsiz bo‘linma bilan qoldiqni topamiz. To‘liqsiz bo‘linmani bo‘luvchining tagiga yozamiz. Qoldiqni esa to‘liqsiz bo‘linuvchining tagiga yozamiz.
7 : 4 = 1 (qoldiq 3)
4. Qoldiqning yoniga keyingi xonadagi raqamni olib tushamiz.
5. Bo‘linuvchida tushirilmagan xonalar qolmaguncha 3 – 4- bandlarni takrorlayveramiz.





4. Bo‘lishdagi har bir amalni tushuntirib bajaring.
952 : 7 846 : 6 735 : 5 9 436 : 7

5. Ushbu masalalarga ifodalar tuzib, ularni yeching.
a) Ekspeditor do‘konlarga tovar tarqatadi. U 5 ta do‘konga 8175 ta nonni teng taqsimlashi kerak. U oxirgi do‘konga nechta non olib boradi?
b) Omborga kelgan 825 kilogramm un 3 qismga bo‘lindi. Omborchi ulardan birini do‘konga yubordi. Do‘konga necha kilogramm un ketdi?

6. Tenglamalarni yeching.
$x \cdot 2 = 3\,565 - 247$ $714 : y = 3\,852 - 3\,849$

7. Jadvalga qarab, do'kon haydovchisi bir kunda necha litr benzin sarflaganini toping.


Bor edi	Ertalab sotib olindi	Kunduzi sotib olindi	Qoldi
27 l	15 l	26 l	7 l

8. Misollarni yechib, tegishli harflarni to'g'ri tartibda qo'ying. Tovarlarni, xaridorlarni o'rganib, tovarni kimga qanday qilib sotishni kim hal qiladi?

A	63 · 8 + 171	L	850 – 4 200 : 7	T	897 – 121 · 1
G	900 – 73 · 4	O	702 – 720 : 9	R	315 + 562 : 1
E	356 + 61 · 6	M	673 + 135 · 0	K	1 000 – 31 · 10

673	675	877	690	722	776	622	250	622	608

9. Suratdagi narsalar muvozanatda turibdi. Ularning jami vazni – 256 gramm. Bunda tayoqcha va iplarning vazni hisobga olinmagan. Yulduzchaning vaznini toping.



10. Burchakli bo'lishdan foydalanib, teskari amal – ko'paytirish yordamida bo'lishning to'g'riligini tekshirib ko'ring.

468 : 3	912 : 4	984 : 8
812 : 7	810 : 6	835 : 5

11. 5 ta qutida 625 ta sovun bor. 7 ta qutida nechta sovun bo'ladi?





Yondosh mavzu:
oshpazlik.

Xonali sonlar, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma.

1. Sonlarni o‘sib borish tartibida joylashtiring.
Barcha qandolatchilar ishlatadigan xushbo‘y masalliq nima?

A	179	V	90	L	590	N	225	I	290

2. Qandolatchi shirinlik pishiryapti. U tayyor pishiriqlarni qutilarga solyapti. Nechta quti bo‘ladi? Nechta pishiriq ortib qoladi?

	Jami pishirilgan	Bitta qutiga nechta ketadi	Jami qutilar
Ekler 	38	6	?
Ponchik 	59	8	?
Keks 	73	9	?

3. Pishiriq solingan qutilarning ustiga qadoqlash mashinasi qo‘ygan raqamlar yozilgan. Bu raqamlarni to‘g‘ri o‘qing.




4. Madina masalani qanday yechganini ko‘ring. Nimani sezdingiz? Madina buni osonroq, qisqaroq qilib yechishi mumkinmidi?

Sakkizta quymoq qilish uchun 1000 gramm un ketadi. Bitta quymoqqa qancha un kerak?



1 ming 8 ga bo‘linmaydi.
1 ni 8 ga bo‘lganda to‘liqsiz bo‘linma 0 bo‘lib, 1 qoldiq qoladi:
1 : 8 = 0 (qoldiq 1)
Tekshirib ko‘raman:
8 · 0 + 1 = 1





Burchakli bo‘lish qoidasi

To‘liqsiz bo‘linuvchi bo‘luvchidan katta bo‘lishi kerak.

Yuqoridagi misolda 1 ming 8 ga bo‘linmaydi. Shuning uchun to‘liqsiz bo‘linuvchining dastlabki ikkita raqamini olish mumkin (ya’ni 1 mingni 10 ta yuz deb olish mumkin).

5. Bo‘lishni bajaring. Har bir ustundagi misollarning nimasi bir xil?

963 : 3	615 : 5	147 : 7
842 : 2	708 : 6	448 : 8
448 : 4	504 : 4	216 : 9

6. Qahvaxonada 16 ta to‘rt o‘rinli stol bor, qolgan stollar olti o‘rinli. Qahvaxona hammasi bo‘lib 172 kishini sig‘dira oladi. Qahvaxonada nechta olti o‘rinli stol bor?

7. Misolni yechib, sutli qattiq shokolad bozorga birinchi marta nechanchi yili chiqqanini bilib oling. Bu shirinlik necha yildan beri mavjud?

(233 926 + 157 632 – 1 939 · 200) : 2



8. Hisobchi jumadan yakshanbagacha qahvaxonaga 980 kishi tashrif buyurganini hisoblab chiqdi. Shu bilan birga, dam olish kunlari qahvaxonaga 725 kishi tashrif buyurgan. Agar shanba kuni qahvaxonada juma kundagidan 123 kishi ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, yakshanba kuni necha kishi tashrif buyurgan?

9. Qandolat fabrikasida 24 ta tayyor tort bor, har bir tortga beze yoki muzqaymoq qo‘shilgan. Bezeli tortlar 15 ta, muzqaymoqli tortlar 19 ta bo‘lsa, ham beze, ham muzqaymoq qo‘shilgan tortlar nechta bo‘ladi?

10. Burchakli bo‘lishdan foydalanib, teskari amal – ko‘paytirish yordamida bo‘lishning to‘g‘riligini tekshirib ko‘ring.

504 : 9	261 : 3	272 : 8
2 982 : 7	3 084 : 6	139 302 : 9

11. Qandolat fabrikasiga shakar va un olib kelindi. Bir qop unning massasi bir qop shakarning massasidan qancha og‘irroq?



Jami: 440 kg



Jami: 468 kg

Yondosh mavzu:
harbiylar.


Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.





1. Armiyadagi harbiylarning bir necha guruhlari bor. Ularning nomlarini bilib oling.

A	3 · 2 + 12	**E**	49 : 7 + 5	**O**	81 : 3 – 12
B	5 · 2 + 1	**Z**	56 : 8 + 19	**R**	64 : 4 + 11
V	28 : 7 + 13	**L**	63 : 9 + 6	**T**	56 : 2 – 14
D	12 : 4 + 17	**N**	54 : 6 + 7	**Y**	91 : 7 + 8



2. Ifodalar tuzib, ularning qiymatini hisoblang.

a) Vzvodda 60 kishi bo‘ladi. Har bir vzvod 5 ta bo‘linmadan iborat. Bitta bo‘linmada necha kishi bor?

b) Batalyonda 500 kishi bo‘ladi. Har bir batalyon 4 ta rotadan iborat. Bitta rotada necha kishi bor?

d) Harbiy bilim yurtida 2316 kishi o‘qiydi. Qizlar yigitlardan 8 baravar kam bo‘lsa, bu yerda nechta qiz o‘qiydi?

47. Masalalar yechish



“Kichik yoki teng” degan ifoda mana shu ≤ belgi bilan yoziladi. Uning chap tomonidagi son o‘ng tomondagi sondan kichik yoki unga teng bo‘ladi.

Masalan, $15 \le x \le 20$ deb yozsak, x sonining qiymati 15 dan 20 gacha bo‘lishi mumkin bo‘ladi.

3. Namunaga qarab yozib chiqing.
Namuna:
Bir vzvodda 15 tadan 60 tagacha odam bo‘lishi mumkin.


$15 \le x \le 60$

a) Bir rotada 45 tadan 360 tagacha odam bo‘lishi mumkin.
b) Polkda 500 tadan 2500 tagacha odam bo‘lishi mumkin.
d) Bitta diviziyadagi harbiylar soni 12 000 dan 24 000 gacha bo‘lishi mumkin.

4. Harbiy mashqlar maxsus maydonchalarda – poligonlarda o‘tkaziladi. Poligonning bo‘yi 3120 m, eni 800 m bo‘ladi. Xavfsizlik maqsadida uning atrofi devor bilan o‘rab chiqiladi. Ana shu devorning uzunligini toping.



5. Misollar to‘g‘ri yechilganmi? Tekshirib ko‘ring.



6. Amallar tartibini aniqlab, ifodalarning qiymatini hisoblang.

184 : 8 – 126 : 6
(595 : 7 + 86) : 9
(87 + 15) : 6

Bu sonlar mashhur harbiy texnikaning nomini topish uchun kalitdir. Hosil bo'lgan sonlarni o'zbek alifbosining xuddi shu o'ringlarda joylashgan harflari bilan almashtiring. Qaysi texnikaning nomi yashiringan? Uni rasmlar ichidan toping.





7. Armiyada xabarlar shifrlanadi, ya'ni maxfiy qoida bo'yicha bir harfning o'rniga boshqa harflar yoziladi.

Agar *AAA* – *VV* + *S* = 716 bo'lsa, *A* + *V* + *S* ni toping.

8. Jadvalni ko'rib chiqing. Bu yerda nechta harbiy-havo texnikasi ko'rsatilgan?

Qiruvchilar	59 ta
Transport aviatsiyasi	qiruvchilardan 41 ta kam
Hujumchi samolyotlar	21 ta
O'quv-mashq samolyotlari	hujumchi samolyotlardan 3 marta kam
Vertolyotlar	96 ta

9. Batalyonda uchta rota bor. Birinchi rotada 98 ta askar, ikkinchisida undan 12 ta askar ko'p, uchinchisida esa ikkinchisidan 17 ta kam askar bor. Bu batalyonda nechta askar bor?

48. Ko‘p xonali sonlarni qoldiqli bo‘lish





Yondosh mavzu: modelyerlar.

Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.

1. Ko‘k rangli katakchadagi sonlarni 2 ga bo‘lganda qanday qoldiq qoladi? Bu sonlarni yana qanday atash mumkin?

27 25 24 35 9 40 55


2. Sartarosh 6 soatda 8 kishini qabul qildi. U har bir mijozga necha minut sarflagan?

3. Sartaroshxonada sochiqlar 6 tadan qilib taxlab qo‘yilgan. 27 ta sochiqni shunday qilib taxlasak, nechta to‘liq taxlam chiqadi? Nechta sochiq ortib qoladi?




Qoldiqli bo‘lish





Qoldiq 0 ga teng.
21 soni 7 ga butun (qoldiqsiz) bo‘linadi.



Qoldiq 0 ga teng emas.
20 soni 7 ga qoldiqli bo‘linadi.

4. Sonni 10 ga bo‘lganda qanday qoldiq qolishi mumkin? 5 ga bo‘lganda-chi? 8 ga bo‘lganda-chi? 1 ga bo‘lganda-chi?

5. Sonni bo‘lishdagi qoldiqni toping.

53 478 ni 3 ga

12 987 ni 7 ga

836 542 ni 5 ga

621 126 ni 4 ga



Kvartal – yilning uch oylik davri.
1 yil = 4 kvartal
1 kvartal = 3 oy

6. Diagrammaga qarab, savollarga javob bering.

Bolalar sartaroshxonaga necha marta borishini diagrammada belgilashdi. Har bir bola kerakli joyga o‘z stikerini joylashtirdi.



Yarim yilda bir marta

Bir kvartalda bir marta

Bir oyda bir marta

a) Nechta bola sartaroshxonaga bir yilda ikki marta boradi? Nechtasi yiliga to‘rt marta boradi?
b) Eng katta guruh qaysi? Ular bir yilda sartaroshxonaga necha marta boradi?
d) Diagrammani hammasi bo‘lib necha kishi belgilagan?

48. Ko‘p xonali sonlarni qoldiqli bo‘lish

7. Sartaroshxonada uchta usta ishlaydi. Noyabr oyida birinchi usta 282 ta kishining sochini oldi. Ikkinchi usta birinchi ustadan 3 marta kam kishining sochini oldi. Uchinchi usta esa birinchi va ikkinchi usta birgalikda olganidan ikki baravar kam odamning sochini oldi. Uchinchi usta noyabr oyida necha kishining sochini olgan?

8. Hisoblang. Ma’lum bir vaziyatga eng mos kiyimni tanlab beradigan, kishining yuziga eng yarashadigan soch turmagini o‘ylab topadigan kishining kasbi nima deb ataladi?

I	(234 + 163) · 6	S	(5 890 – 4 895) · 3
L	(22 167 – 4 058) : 7	T	4 344 : 8 + 2 039

2 985	2 582	2 382	2 587	2 382	2 985	2 582

9. Sartaroshxonadagi elektron soat faqat soatlar bilan minutlarni ko‘rsatadi? Ertalab soat 9:00 dan kech soat 20:00 gacha bu soatda necha marta to‘rtta bir xil sonni ko‘rish mumkin?



10. Qoldiqli bo‘lishni bajaring.

899 566 : 5 512 678 : 3

334 116 : 8 921 543 : 4

11. Uchta taroqdan iborat to‘plamning narxi 18 600 so‘m, beshtalik to‘plam esa bundan 7 200 so‘m qimmatroq. Qaysi birida bitta taroq arzonroq bo‘ladi?

49. O‘rtasida 0 raqami bor sonlarni bo‘lish

Yondosh mavzu:
lingvistik (tilshunoslikka oid) kasblar.

Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.





1. Misollarni yeching. Javoblarni o‘sish tartibida joylashtiring. Tillar va ularning xilma-xilligini o‘rganish bilan bog‘liq kasb nima deb ataladi?


I 804 : 4	**L** 412 : 4	**Y** 550 : 5	**Ng** 872 : 8
I 749 : 7	**T** 608 : 2	**S** 909 : 3	**T** 936 : 3

2. Ifoda tuzing. Sonni bo‘lishga qulay sonlar yig‘indisiga yoyib hisoblang.
Tarjimon bir kunda 4 sahifa matnni tarjima qilishi mumkin. 416 sahifani tarjima qilishga necha kun ketadi?

3. Madina bo‘lishni qanday bajarganini ko‘rib chiqing. Nimani sezdingiz? Madina bu yechimni qanday qisqartirishi mumkin?



416 = 4 yuzl., 1 o‘nl., 6 birl.
a) Yuzliklarni bo‘lamiz
4 yuzl. : 4 = 1 yuzl.
(qoldiq 0).
b) O‘nliklarni bo‘lamiz
1 o‘nl. : 4 = 0 o‘nl.
(qoldiq 4).
d) Qolgan o‘nliklarni birliklarga aylantirib, ularni birliklarga (birlarga?) qo‘shamiz.
(1 o‘nl. + 6 birl.) : 4 =
16 birl.: 4 = 4 birl.



49. O‘rtasida 0 raqami bor sonlarni bo‘lish



Raqamni pastga tushirganda to‘liqsiz bo‘linuvchini hali ham bo‘linuvchiga bo‘lishning imkoni bo‘lmayotgan bo‘lsa:


a) bo‘linmaga 0 raqamini qo‘shib qo‘yish kerak;

b) bo‘linuvchining yana bitta raqamini pastga tushirish kerak.

Bo‘linuvchining raqamini faqat quyidagi holatlarda pastga tushirish mumkin:

a) shu xonadagi sonni bo‘lgandan keyingi qoldiq topilgandan keyin;

b) to‘liqsiz bo‘linmaga 0 raqamini qo‘shib yozgandan keyin.





4. Bo‘lishni bajaring.

4 072 : 4	16 206 : 6	240 288 : 8
2 763 : 9	10 075 : 5	282 828 : 7



5. Bosma qog‘ozlarning ma’lum o‘lchami bo‘ladi. Masalan, A4 varaqning o‘lchami 210 mm x 297 mm bo‘ladi.

a) A3 varaq – uzun tomoni bilan birlashtirilgan ikkita A4 qog‘ozga teng bo‘ladi. A3 varaqning o‘lchamlari qanday bo‘ladi?

b) A2 varaq – uzun tomoni bilan birlashtirilgan ikkita A3 qog‘ozga teng bo‘ladi. A2 varaqning o‘lchamlari qanday bo‘ladi?

d) Shu qoidadan foydalanib, A0 varaqning o‘lchamlarini toping.



6. A4 qog‘ozning uzun tomonini teng ikkiga buklasak, A5 qog‘oz hosil bo‘ladi. A5 qog‘ozning o‘lchami qanday?



7. Santimetrda yozing:

13 dm 4 cm	5 dm 8 cm 40 mm
2 m 7 dm 6 cm	2 m 12 dm 35 cm

8. Harf teruvchi 47 bet matn yozdi. 1800 ta belgi (harf, belgi va bo‘shliq) bir bet hisoblansa, hammasi bo‘lib nechta belgi yozilgan? Harf teruvchi bir kunda 10 bet matn yoza olsa, bu matnni yozishiga necha kun ketgan?


9. Hisoblang.

9 m + 3 m 2 dm – (4 m 57 cm + 34 dm 3 cm)

6 m · 4 + (8 m 2 dm – 3 m 9 dm) · 2

1 m 5 cm : 3 + (1 m – 45 cm) : 5

10. Qaysi shaklning maydoni kattaroq?



11. Bo‘lishni bajaring.

5 105 : 5	81 081 : 9	302 008 : 4
3 606 : 6	13 002 : 3	500 072 : 8

12. A6 qog‘ozning bo‘yi 148 mm, eni 105 mm. Daftarda shunday to‘g‘ri to‘rtburchak yasab, uning perimetri va yuzini hisoblang.

50. 0 bilan tugagan sonlarni bo‘lish





Yondosh mavzu:
buxgalter va kassirlar.

Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.

1. Hisoblang. Javoblarni kamayish tartibida yozib chiqing. Bu darsda qaysi kasb haqida so‘z boryapti?

A 6 · 7	**E** 5 · 5	**T** 6 · 6
B 8 · 9	**L** 4 · 10	**U** 7 · 9
G 8 · 6	**R** 3 · 4	**X** 11 · 5

2. Yaxlit sonlarni bo‘lish qoidasini eslang. Hisoblab, javoblarni o‘sish tartibida joylashtiring.

A	25 yuzl. : 5	**K**	18 yuzl. : 9	**C**	72 ming. : 8
I	12 mln.	**R**	54 mln. : 6	**C**	42 ming. : 7

3. Burchakli bo‘lishni ko‘rib chiqing. Qanday xulosa qila olasiz?

I usul

125000 | 5
10 | 25000
25
25
00
0
00
0
00
0
0


II usul

125000 = 125 ming.

125 ming. | 5
10 | 25 ming.
25
25
0

125000 : 5 = 25000

Bo‘linuvchi 0 bilan tugagan bo‘lsa, bu sonning xonalarida 0 dan boshqa raqamlar qolgunicha, bo‘linmaning qoldig‘i 0 ga teng bo‘lmagunicha bo‘lishda davom etaveramiz. Shundan keyin qolgan 0 larni bo‘linmaga o‘tkazib qo‘yamiz.





4. Bo‘lishni qulay usul bilan bajaring.

456 000 : 6 543 000 000 : 3 17 800 : 2

5. Kompaniya eng yaxshi ishlagan 6 nafar ishchiga 8 220 000 so‘m ajratdi. Agar bu mukofot ishchilar o‘rtasida teng bo‘linsa, har bir ishchi necha so‘m olgan?

6. Besh kishilik qurilish brigadasi ishlagan har bir soati uchun 178 000 so‘m oladi. Ish kuni 8 soat bo‘lsa, har bir quruvchi kun oxirida necha so‘m oladi?

7. Anora tasma sotib olishga 128 000 so‘m sarfladi. U ana shu tasmalardan 8 ta bog‘ich, 12 ta xatcho‘p tayyorladi. Anora har bir bog‘ichni 20 000 so‘mdan, xatcho‘pni esa 13 000 so‘mdan sotdi. U jami qancha pul topdi?

8. Solishtiring.

$7 \cdot 100 \square 8 \cdot 10 \cdot 10$ $9 \cdot 10 + 3 \square 7 \cdot 10 + 9$

$20 \cdot 6 \square 7 \cdot 2 \cdot 5$ $6 \cdot 10 + 4 \square 8 + 4 \cdot 10$

$8 \cdot 4 \cdot 5 \square 2 \cdot 9 \cdot 5$ $(9 + 1) \cdot 10 \square 8 \cdot 10 + 2 \cdot 10$

50. 0 bilan tugagan sonlarni bo‘lish

9. Sonlarni xonalik sonlar yig‘indisi shaklida yozing.
Namuna:
40 308 = 40 000 + 300 + 8.

30 600	870 320	100 500
720 526	3 000 459	9 000 009

10. Tenglamalarni yeching. Ularning ildizlarini o‘qing.

$m - 40 - 700 = 3\,000$
$b - 20 - 600 - 8\,000 = 300\,000$

11. Buxgalteriya daftarining bir necha varag‘i yo‘qoldi. 68-betdan keyingi bir necha varaq yo‘q, keyingi varaqlar 93-betdan boshlangan. Necha varaq yo‘qolgan?

12. Ikkita tanganing joyini shunday o‘zgartiringki, rasmdagi kubok pastga qarab qolsin.



13. Bo‘lishni burchakli usulda bajaring:

87 000 : 3	12 900 : 6	328 000 : 4
1 550 : 5	648 000 000 : 8	1 680 000 : 7


14. Firma yanvar oyida 135 mln so‘m, fevralda yanvardagidan 5 baravar kam, mart oyida esa fevraldagidan 3 baravar ko‘p daromad oldi. Firma bu kvartalda jami necha so‘m daromad olgan?

Yondosh mavzu:
qurilishga oid kasblar.

Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.







1. Sonlarni yirikroq xonali sonlar shaklida yozib, namunaga qarab hisoblang.

a) 4500 ta g‘ishtni 900 tadan qilib taxlashdi. Nechta taxlam bo‘ldi?

Namuna:

4 500 : 900 = 45 yuzl. : 9 yuzl. = 5



b) 350 qop sementni ko‘tarma kran yordamida ko‘tarishdi. Kran bir martada 50 qopni ko‘tara olsa, jami necha marta ko‘targan bo‘ladi?

d) Yuk mashinasi bir kunda 200 litr yoqilg‘i sarflaydi. 80 000 litr yoqilg‘i necha kunga yetadi?




e) Usta bir kvadrat metr g‘isht devor urish uchun 200 000 so‘m oladi. Agar usta jami 82 600 000 so‘m olgan bo‘lsa, necha kvadrat metr devor urgan bo‘ladi?

0 bilan tugagan sonlarni bo‘lish

Bir yaxlit sonni boshqa yaxlit songa bo‘lish uchun har bir sonning o‘ng tomonidan bir xil sondagi 0 larni olib tashlab, keyin bo‘lish kerak. Bo‘luvchida nechta 0 bo‘lsa, shuncha 0 ni olib tashlash kerak. Agar bo‘linuvchining o‘ng tomonidan 0 lar qolgan bo‘lsa, ular bo‘linmaga o‘tkaziladi.





51. 0 bilan tugagan sonlarni bo‘lish

2. Bo‘lishni burchakli usulda bajaring.

175 000 : 700	672 000 : 80	468 000 : 50
5 640 000 : 3 000	75 600 : 70	9 440 000 : 4 000

3. Uyning poydevori to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, uning bo‘yi 30 m, yuzi 810 m^2. Uyning enini toping



4. Jadvaldan foydalanib, masalani daftarda yeching.
Yuk mashinaga bir martada 8 kubometr qum yoki 5 000 dona g‘isht yuklash mumkin. Qurilishga 6 600 kubometr qum va 785 000 dona g‘isht kerak bo‘lsa, yuk mashinasi bu yerga necha marta qatnashi kerak?

	Olib kelish kerak	Bir martalik qatnovda	Qatnashlar soni
Qum	6 600 kub.m	8 kub.m	?
G‘isht	785 000 dona	5 000 dona	?
Jami			?

5. Ilgari armiyada qarigan otlarni yoshlariga almashtirish shunday atalgan. Hozir bu so‘z bizda butunlay boshqa ma’noni bildiradi. Shu so‘zni toping.

E	316 + 184 + 112	**N**	447 + 225 + 53
O	500 – 118 – 182	**R**	429 – (129 + 120)
M	(237 + 112) – 137	**T**	(272 + 319) – 119

180	612	212	200	725	472

6. Yig‘indini bir songa bo‘lish xossasidan foydalaning. Shunda nechta amal tejaladi?


4 590 : 30 + 4 410 : 30 6 480 : 80 + 1 520 : 80

7. Yaxlit sonlarni bo‘lish qoidasini eslang. Hisoblab, javoblarni kamayish tartibida yozib chiqing. Har qanday qurilishni boshlashdan oldin mutaxassis kelib, bino quriladigan joyni, shu yerdagi tuproqning holatini o‘rganadi. Bu mutaxassisning kasbi nima deb ataladi?

G	72 000 : 9	E	560 000 : 80	O	42 000 000 : 7 000
D	36 000 : 60	Z	80 000 : 400	S	160 : 2
E	200 000 : 400	I	900 : 9	T	32 000 : 8 000

8. Qirol saroyini qurgan 4 ta bo‘yoqchi bilan 3 ta g‘isht teruvchiga 74 ta tilla tanga, 3 ta bo‘yoqchi bilan 4 ta g‘isht teruvchiga 66 ta tilla tanga to‘landi. Bitta g‘isht teruvchi bilan bitta bo‘yoqchiga nechta tanga to‘langan?

9. Zanjir bo‘yicha hisoblang.



10. Ko‘pqavatli uy qurish uchun bo‘yi 77 m, eni 18 m keladigan xandaq kovlandi. Bu xandaqning atrofini o‘rab chiqish uchun necha metr to‘rli sim kerak? Bu uyning yuzi qancha?

52. Bo‘lishning geometrik ma’nosi





Yondosh mavzu:
ijodiy kasblar.

Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.

1. Florist gullardan guldasta yasashi kerak.

a) Agar u har bir guldastaga 3 tadan pion qo‘shsa, nechta pion ortib qoladi?



b) Har bir guldastaga 5 tadan freziya qo‘shilsa, nechta guldasta chiqadi?




2. Landshaft dizayneri bog‘dagi yo‘lak yonini chimzor bilan bezatyapti. Yo‘lakning uzunligi 300 m bo‘lib, har 40 metrda bitta guidon turishi kerak. Bog‘ning chizmasini chizib, qolgan guldonlar turadigan joylarni belgilang. Oxirgi guldondan yo‘lakning oxirigacha necha metr qoladi?




3. Rassom devorni takrorlanadigan naqsh bilan bezayapti. Takrorlanadigan har bir bo‘lakning – rapportning uzunligi 3 m. Agar devorning uzunligi 73 metr bo‘lsa, naqsh necha marta takrorlanadi? Bu naqsh devorning qancha qismiga yetmay qoladi?

Qoldiqli bo‘lishning geometrik ma‘nosi
***c* to‘liqsiz bo‘linma *a* uzunlikdagi kesmaga necha marta *b* uzunlikdagi kesma joylashishini ko‘rsatadi. *a* kesmaning qolgan qismi uzunligi aynan *r* qoldiqqa teng.**





4. Rasm bo‘yicha, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma va qoldiqni toping.



5. «Bahor» raqs ansamblida 60 kishi bor. Ansambl rahbari qatnashchilarni 3, 4, 6 va 8 guruhga bo‘lmoqchi. Qaysi holatda ansamblni teng guruhlarga bo‘lishning iloji yo‘q?


6. Quyidagilarni toping:
a) 8 ga bo‘lganda to‘liqsiz bo‘linma 24 ga, qoldiq esa 3 ga teng bo‘lsa *x* sonini;
b) 7 ga bo‘lganda to‘liqsiz bo‘linma 132 ga, qoldiq esa 5 ga teng bo‘lsa *y* sonini.

7. Rassomning palitrasida 7 ta turli ranglar bor. U 2 tadan rangni aralashtirib, nechta turlicha yangi ranglar hosil qila oladi?


8. «Nilufar» degan tasmadagi takrorlanuvchi bo‘lakning uzunligi 7 cm, eni 9 cm. 2 m tasmaga nechta butun nilufar sig‘adi?




9. Rassom bu yerda nechta uchburchak chizgan?



10. Bu rasmda nechta kvadrat bor?



11. Rasm bo‘yicha bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma va qoldiqni toping.



12. Quyidagilarni toping:

a) 7 ga bo‘lganda to‘liqsiz bo‘linma 380 chiqadigan, qoldiq 5 ga teng bo‘ladigan x sonni;

b) 9 ga bo‘lganda to‘liqsiz bo‘linma 103 chiqadigan, qoldiq 1 ga teng bo‘ladigan y sonni.

Yondosh mavzu:
dehqonchilikka oid kasblar.

Matnli va geometrik masalalar.



1. Hisoblang.

a) pomidorlar har biriga 80 kg dan qilib yashiklarga solinyapti. 2 000 kg pomidorga nechta yashik kerak bo'ladi?
b) dalaning uzunligi 340 m, eni 170 m. Dalaning yuzini toping.
d) dalaning 1 m^2 maydoniga 20 gramm o'g'it ketadi. Yuzi 3 780 m^2 bo'lgan dalaga necha gramm o'g'it ketadi?





2. Toping:

a) 265 dan 5 marta katta sonni;
b) 2460 dan 10 marta kichik sonni;
d) 35 dan 100 marta katta sonni;
e) 224 dan 7 marta kichik sonni.

3. Amallarning to'g'ri tartibini aniqlang. Ekinni qachon, qanday ekishni, uni qanday yetishtirib, hosilni qanday yig'ib olishni biladigan kishining kasbi nima deb ataladi?

$$3\ 000 - 9 \cdot (345 + 187) : 2 + 7 \cdot (650 - 118)$$


O R A O M N G

4. Agronomning mehnati tufayli fermer xo'jaligida kartoshkaning unumdorligi 3 baravar ortib, bir maydondan 25 200 kg hosil olindi. Ilgari kartoshkaning unumdorligi qanday bo'lgan ekan?


5. Hisoblang. Javoblarni o‘sish tartibida joylashtiring. Qaysi kasb egalari qishloq xo‘jalik mashinalarini boshqaradi?

ZA	628 000 : 800	**LAR**	789 000 : 300
ME	158 000 : 400	**TOR**	594 000 : 600
NI	657 000 : 900	**XA**	427 000 : 700

6. Sxemadan foydalanib, masalani yeching.
Birinchi kun 127 000 kg bug‘doy yig‘ib olindi. Bu ikkinchi kundagidan 36 000 kg ko‘p, uchinchi kundagidan esa 18 000 kg kam. Shu uch kunda jami necha kilogramm bug‘doy yig‘ib olingan?



7. Teskari operatsiyalarni tanglang:



8. Ifodalarni soddalashtiring.

$x + 4\,140 + 3\,702$ $\qquad$ $(z + 5\,124) - 1\,124$

$5\,690 + y + 1\,172$ $\qquad$ $(800 + t) - 320$

9. Tenglamalarni yeching.

$(x - 45) \cdot 7 = 336$ $\qquad$ $(y + 78) \cdot 5 = 530$

$(z - 70) : 8 = 56$ $\qquad$ $(800 - t) : 3 = 37$

10. Ikkita o'rmonchi ko'l atrofida o'sayotgan daraxtlarni sanay boshlashdi. Birinchi o'rmonchi daraxtning nomerini qizil bo'yoq bilan, ikkinchisi esa ko'k bo'yoq bilan yozib boraverdi. Ular sanashni boshqa-boshqa daraxtdan boshlagan bo'lsa ham, bir tomonga qarab harakatlanishdi. Oxirida qarashsa, bitta daraxtda qizil rangda 20, ko'k rangda 6 deb yozilgan, boshqasida esa qizil bilan 8, ko'k bilan 49 deb yozilgan ekan. Ko'lning atrofida jami nechta daraxt bor ekan?



11. Amallarning to'g'ri tartibiga rioya qilib hisoblang.

$(26\,800 : 200 + 436) : 30$;

$34\,400 : (566 + 234) - 17$;

$56 \cdot 300 : 700 - 18$.

12. Olmazorning maydoni 2 40 800 m^2 bo'lib, polizning maydonidan 20 baravar, nokzorning maydonidan 4 baravar katta. Poliz va nokzorning maydonlarini toping. Har bir maydonning yuzini toping.



Biz nimalarni bilib oldik? Nimalarni o‘rgandik?


Yig‘indini songa bo‘lishni o‘rgandik.

1. Bo‘lish:

a) Uchta uy bekasi bu mevalarni teng bo‘lib olishi kerak. Har biriga qanchadan to‘g‘ri keladi?



900 ta olma



600 ta olma



1200 ta shaftoli

b) Beshta sotuvchi bu sabzavotlarni bo‘lib olishi kerak. Har biriga qanchadan to‘g‘ri keladi?



400 kg



150 kg



350 kg

2. Savollarga javob bering.

a) Tikuvchi har bir ko‘ylakka 8 tadan tugma qadashi kerak. Unda 50 ta tugma bor bo‘lsa, nechta ko‘ylak tayyor bo‘ladi? Nechta tugma ortib qoladi?

b) Har bir o‘quvchi nazorat ishi uchun 5 ta daftar tayyorlab qo‘yishi kerak. 153 ta daftar nechta o‘quvchiga yetadi? Nechta daftar ortib qoladi?

d) 380 000 ta detalni 50 000 tadan qilib yashiklarga joylash kerak. Nechta yashik to‘ldi? Necha detal ortib qoldi.


Sonlarni burchakli bo‘lishni o‘rgandik

3. Sonlarni burchakli bo‘ling.

5 614 : 7 | 9 480 : 60 | 504 : 6 | 133 200 : 9 | 621 120 : 30

Amaliy masalalarni sxemalar yordamida yechishni o‘rgandik.

4. Sxemadan foydalanib, masalani yeching.
Hosilni yig‘ishda birinchi maydondan 612 000 kg, ya’ni uchinchi maydondagidan 4 marta ko‘p bug‘doy yig‘ib olindi. Ikkinchi maydondan esa birinchi maydondagidan 3 marta kam bug‘doy yig‘ib olindi. Uchta maydondan jami necha kilogramm bug‘doy yig‘ib olingan?



Amaliy masalalarni yechish ko‘nikmalarimizni mustahkamlaymiz.

5. Sxema chizib, masalani yeching.
Birinchi usta bir oyda 5 970 ta detal yasabdi, bu ikkinchi ustadan 2 baravar ko‘p, uchinchi ustadan 3 baravar ko‘p. Bu uchta usta jami nechta detal yasagan?

54. Ikki xonali sonni ikki xonali songa burchakli bo‘lish





Yondosh mavzu:
suv resurslari.


Tanlash usuli, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.

1. Ifodalar tuzib, ularning qiymatini hisoblang. Hamma qiymatlarni ham hisoblay olasizmi?
a) 9 minutda necha litr suv oqib chiqadi?
b) Hajmi 90 litrlik vanna necha minutda to‘ladi?



d) Sonli nur yordamida 1 minut, 2 minut va 3 minutdan keyin jo‘mrakdan qancha suv oqib ketishini ko‘rsatib bering.

Bir minutda jo‘mrakdan 15 litr toza ichimlik suvi oqib ketadi.




Ikki xonali sonni ikki xonali songa bo‘lganda bo‘linma tanlash usuli bilan topiladi.
Bunda bo‘luvchiga ko‘paytirganda bo‘linuvchiga teng yoki undan salgina kichik son chiqadigan son tanlanadi. Bundagi qoldiq bo‘linuvchidan kichik bo‘lishi kerak.




Masalan, 75 : 15 ifoda uchun bo‘linma tanlaymiz.
Aytaylik, bo‘linma 4 ga teng bo‘lsin.
4 · 15 = 60, demak, qoldiq 75 – 60 = 15 bo‘ladi.
Bu qoldiq bo‘luvchiga teng, lekin undan kichik emas, demak, bo‘linmani sal kattaroq tanlash mumkin.
Keling, bo‘linma 5 ga teng deb ko‘raylik:
5 · 15 = 75.
Bu holatda qoldiq 0 ga teng, demak, bo‘linmani to‘g‘ri tanlabmiz.



2. Shunday bir xonali son tanlangki, misol to‘g‘ri yechilgan bo‘lsin.



3. Daftaringizga ko‘chirib yozib, bo‘lishni bajaring.



4. Ifodalarni yozib olib, qiymatini hisoblang.

a) Bitta idishga 18 l ichimlik suvi sig‘adi. Bir oyda bir sinf 90 l suv ishlatsa, nechta idish kerak bo‘ladi?

b) Sinfdagi 26 ta o‘quvchiga 78 ta idishchada suv tayyorlandi. Har bir o‘quvchiga nechtadan idishcha to‘g‘ri keladi?



5. Suv ta’minoti orqali suv yuborishdan oldin quvurlar maxsus basseynda tozalanadi. Suv tozalaydigan bitta basseynning yuzi 98 m^2. Agar bu basseynning uzunligi 14 m bo‘lsa, uning perimetri qanday bo‘ladi?

6. Qulay usulda hisoblang.

(45 + 60 + 15) : 15 (35 + 42 + 84) : 7

(23 + 33 + 19) : 25 (44 + 22 + 88) : 11

7. Bu ifodalarni hisoblab, ularni o‘zaro taqqoslang.

$48 : 3 - 16 : 4 + 5 \cdot 17$

$120 - (24 \cdot 4) + 36 : 2$

$(658 : 7 + 13) - 49$

8. Suv mana shu 4 ta quvurdan chiqib ketadi. Bir minut qaysi quvurdan ko‘proq suv chiqib ketadi? Javobingizni asoslab bering.



9. Bo‘lishni bajarib, javoblarni kamayish tartibida joylashtiring.

A 95 : 19	**Q** 99 : 11	**E** 97 : 97
Y 91 : 13	**I** 69 : 23	**SH** 42 : 21
A 96 : 12	**N** 84 : 14	**T** 68 : 17

Biz uy sharoitida suvni qanday tozalaymiz?

10. Kir yuvishning qaysi usuli eng arzonga tushadi?

5 kg kirni yuvishga ketadigan suv		
		
90 l	80 l	45 l

Avtomat kir yuvish mashinasi suvni qo‘lda yuvishga qaraganda necha marta kam sarflaydi?

55. Ikki xonali sonni ikki xonali songa burchakli bo‘lish

Yondosh mavzu:
tabiiy gaz.

Tanlash usuli, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.





1. Ifoda tuzing. Uning qiymatini hisoblay olasizmi?
To‘rt kishilik oila bir yilda ovqat pishirish uchun 132 kubometr gaz ishlatadi. Agar bu oila har oyda gazni bir xil miqdorda sarflasa, bir oyda qancha gaz sarflaydi?

Burchakli bo‘lish algoritmi

1. Bo‘linuvchidan to‘liqsiz bo‘linuvchini – bo‘luvchiga bo‘linadigan eng kichik raqamlar guruhini ajratib olamiz.


2. Bu to‘liqsiz bo‘linuvchini bo‘luvchiga bo‘lgandagi bo‘linmani tanlab, bo‘linmani bo‘luvchi ostiga yozamiz.

3. To‘liqsiz bo‘linmani bo‘luvchiga bo‘lgandagi qoldiqni topamiz.

4. Bo‘linuvchining yana bitta raqamini pastga olib tushamiz.

5. Hosil bo‘lgan to‘liqsiz bo‘linuvchini bo‘lishdan hosil bo‘lgan bo‘linmani tanlaymiz.

6. 4–5-amallarni bo‘linuvchida raqamlar qolmaguncha takrorlayveramiz.





2. Bo'lishni daftarda bajaring.



3. Tenglamalarni yechib, javobini tekshirib ko'ring.

$x \cdot 35 = 823 + 17$ $\qquad$ $4\,355 : y = 143 - 76$

4. Ifodalarni soddalashtiring.

$a + 278 + 332$ $\qquad$ $567 + b + 103$

$m + 19 + 82 + 16$ $\qquad$ $54 + 34 + n + 192$


$x + 2\,093 : 23 + 255 : 17$ $\qquad$ $285 : 15 + y + 14 \cdot 28$

5. Amallar tartibiga rioya qilib, masalani yeching. Tabiiy gaz bir necha xil gazlarning aralashmasi bo'ladi. Bu aralashma tarkibiga kiruvchi asosiy gazning nomini toping.

$12\,890 - 2 \cdot (4\,569 - 2\,110) - 880 : 16$

A 7 972	**M** 2 459	**O** 2 731
E 4 918	**N** 7 917	**T** 55

6. Masalaga ilova qilingan qisqacha shartdan foydalaning. Yozda 23 kubometr, kuzda yozdagidan 2 marta ko'p gaz sarflangan. Bahorda kuzdagidan 3 kubometr kamroq, qishda esa yozda va kuzda birgalikda qancha bo'lsa, shuncha gaz sarflanibdi. Yil davomida jami qancha gaz sarflangan?



7. Hisoblamay turib solishtirib ko'ring.

480 : 6 ▷ 240 : 6	833 : 7 ☐ 833 : 17
287 + 178 ▷ 287 – 178	543 + 655 ☐ 655 + 543
220 : 2 ◁ 220 · 2	721 + 319 ☐ 719 + 321

8. Shu sonlar yordamida to'rtta istalgan shakldagi tenglik tuzing:
12, 15, 30, 27, 48, 60, 90, 180, 450.

9. Uchta uyni gaz, suv va elektrga ulash kerak. Quvurlarni shunday o'tkazish kerakki, ular bir-biri bilan kesishmasin.
Javobingizni chizib ko'rsating.



10. Tabiiy gaz bilan birga ko'pincha yana bir foydali modda qazib olinadi. Ikki xonali javoblarni kamayib borish tartibida yozsangiz, uning nomini bilib olasiz.

T	1 632 : 96	N	1 311 : 23
E	882 : 42	K	702 : 54
I	560 : 80	F	855 : 45

11. Uyga gaz hisoblagich o'rnatilmagan bo'lsa, gaz plitadan foydalanganlik uchun shu uyda yashovchi har bir kishiga 13 200 so'mdan pul to'lanadi. 8 kishilik oila qancha to'laydi?

56. Uch xonali songa burchakli bo‘lish





Yondosh mavzu:
foydali qazilmalar.

Tanlash usuli, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.

1. Ifodalar va ularning qiymatlarini tutashtiring, ba’zi foydali qazilmalarning nomini bilib olasiz.

12 · 11 VOL	15 · 18 AS	60 · 42 NI	17 · 24 GRA
270 BEST	408 FIT	132 FRAM	KEL 2 520

2. Sonlarni xonali qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozing.

124 909 100 340 230 170 034 200 000 001

3. Hisoblashlarni daftaringizda bajaring. Nimani sezdingiz?

17927 7936|31 31744|124



Uch xonali songa bo‘lish ham ikki xonali songa bo‘lish kabi bajariladi.

4. Hisoblang.

774 : 129	2 296 : 287	2 850 : 475
4 256 : 152	25 745 : 271	7 656 : 638

5. Ifodalar tuzib, ularning qiymatini hisoblang.




a) Bitta vagonga 67 tonna toshko‘mir yuklash mumkin. 1 206 tonna ko‘mirni tashish uchun nechta vagon kerak bo‘ladi?




b) Yuk poyezdiga har biriga 60 tonna neft sig‘adigan 3 ta sisterna hamda 50 tonna sig‘adigan 5 ta sisterna ulandi. Bu sisternalarda jami qancha neft bor?

6. Birinchi shaxtadan bir yilda 3 139 000 tonna, ikkinchi shaxtadan esa 5 110 000 tonna kam ko‘mir qazib olindi. Bir yilni 365 kun deb olsak, har bir shaxtadan kuniga qancha ko‘mir qazib olinadi?

7. Bu shakllarning perimetrini toping.






8. Shaxta deb yer ostidan foydali qazilmalar qazib olinadigan bo‘shliq yoki chuqurga aytiladi. Rasmdagi shaxta uchun uzunligi 700 m, eni 150 m qisqa bo‘lgan to‘rtburchak shaklidagi joy ajratilgan. Bu joyning perimetrini hisoblang.



56. Uch xonali songa burchakli bo‘lish

9. Konchilarning birinchi brigadasi bir ish kunida 63 vagonetka ruda qazib oldi. Ikkinchi brigada birinchidan 7 vagonetka ko‘p, uchinchi brigada esa birinchi va ikkinchi brigadalar birgalikda qazib olganidan 3 baravar kam ruda qazib oldi.
Bu brigadalar jami nechta vagonetka ruda qazib olgan?

10. Karyer – foydali qazilmalar qazib olinadigan ochiq joy. Karyerdan granit bo‘laklarini olib chiqish kerak. Bu bo‘laklarni shunday taqsimlangki, har bir yuk mashinasiga 15 tadan bo‘lak yuklansin.



11. Bo‘lishni bajarsangiz, foydali qazilmalar qazib olinadigan gorizontal bo‘shliqning nomi chiqadi.

K	3 763 : 53
O	2 310 : 42
N	8 188 : 92
A	1 443 : 39
L	6 441 : 113
Y	7 008 : 219
T	4 998 : 147
SH	13 536 : 752




18	34	55	57	89	32	37

12. Birinchi kun karyerdan 24 mashina ko‘mir olib chiqildi. Ikkinchi kun undan 4 mashina kam, uchinchi kun esa birinchi va ikkinchi kunlardagidan 2 baravar kamroq ko‘mir olib chiqildi.
Shu uch kunda necha mashina ko‘mir olib chiqildi?

Yondosh mavzu:
xonakilashtirilgan hayvonlar.

Tanlash usuli, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.





1. Turli mamlakatlarda qaysi jonivorlar xonaki hayvon hisoblanishini aniqlang.



Mangust
12 942 : 719



Lama
12 474 : 54



Bo‘g‘ma ilon
10 285 : 121



Qo‘tos
8 662 : 61



Xitoy
63 + 79



Hindiston
111 – 93



Peru
420 – 189



Braziliya
42 + 43

2. Masalalarni sxemalar tuzib yeching.


a) Suruvda 196 ta qo‘y bor edi. Suruvni 7 guruhga bo‘lsak, har birida nechtadan qo‘y bo‘ladi?


b) Fermer xo‘jaligida 215 ta qo‘y bor, echkilar qo‘ylardan 126 ta kam, sigirlar esa qo‘y va echkilar bizgalikda qancha bo‘lsa, shundan ikki baravar kam. Bu fermer xo‘jaligida jami nechta jonivor bor?

3. Ifodalarni hisoblamay turib, ularni taqqoslang.

12 798 : 3 ☐ 12 798 : 9	18 432 : 24 ☐ 18 432 : 48
11 175 : 745 ☐ 11 175 : 447	12 312 : 27 ☐ 12 312 : 54

4. Molxona uchun ikkita joy ajratilgan. Rasmlarga qarab, har bir joyning uzunligini aniqlang.





5. Har bir ustundagi ortiqcha ifodani toping.

$(6 + 5) \cdot 3$	$4 \cdot (28 - 7)$
$(6 + 5) + (6 + 5) + (6 + 5)$	$(28 - 7) + (28 - 7) + (28 - 7) + (28 - 7)$
$6 \cdot 3 + 5 \cdot 3$	$4 \cdot 28 + 4 \cdot 7$
$6 + 5 \cdot 3$	$28 \cdot 4 - 7 \cdot 4$

6. Savolga javob berish uchun ifodalar tuzing.

	Bitta sigirdan olingan sut	Sigirlar soni	Jami sut
Yozda	18 l	50	?
Qishda	12 l	?	720 l
Bahorda	?	80	1200 l

7. Molxona tomonlari 10 m bo‘lgan kvadrat shaklida. Fermer uning atrofini rasmdagidek yog‘och ustunlar bilan o‘rab chiqmoqchi. Agar fermer ustunlarning balandligini 80 cm qilmoqchi bo‘lsa, unga necha metr yog‘och kerak bo‘ladi?



8. Tenglamani yechib, javobini tekshirib ko‘ring

$x + 334\,915 = 680\,324$ $\qquad$ $128 \cdot y = 1\,024$


9. Sigir bir bog‘ pichanni 1 kunda, ot 2 kunda, qo‘y esa 3 kunda yeydi. Bir oyda 30 kun bo‘lsa, sigir, ot va qo‘y birgalikda bir oyda necha bog‘ pichan yeydi?

10. Masalalarni sxema bo‘yicha yeching.

Ot va qo‘ylar uchun bir xil miqdorda pichan tayyorlandi. Otlar bu pichanni 3 kunda, qo‘ylar 9 kunda yeydi.

a) Otlarga qancha pichan tayyorlangan?

b) Qo‘ylar bir kunda qancha pichan yeydi?



11. Bu hayvonlar guruhi qanday atalishini toping.

A 234 + 728 $\qquad$ **N** 253 · 4

B 193 + 893 $\qquad$ **R** 387 · 5

O 1 028 – 209 $\qquad$ **T** 1 792 : 8

G 2 705 – 1 983 $\qquad$ **U** 3 375 : 9

819	224	962	1 935

Otlar uyuri

224	962	1 086	375	1 012

Qo‘ylar suruvi

722	375	1 935	224

Sigirlar podasi

58. Sonlarni bo‘lish






Yondosh mavzu:
madaniy o‘simliklar.

Amallar tartibi, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, to‘liqsiz bo‘linma, qoldiq.

1. Bu mevalar qaysi o‘simlikdan uzib olinganini toping. O‘simliklar va ularning mevalarini ufodalarning umumiy qiymatiga ko‘ra tutashtiring.



4 509 : 9




1 248 : 6



2 420 : 4



3 549 : 7



39 · 13



167 · 3



26 · 8



11 · 55

2. Amallar dasturini tuzib, hisoblang.

9000 : 3 : 30 + 8 · (202 : 2 – 100) – 269 · (32 · 2 – 64)


(40 · 80) : 100 + (8 · 70 – 657 · 0) : 10 – 10 · (9 · 3 : 27 + 4)

3. Bo‘lishni bajaring, so‘ng javobini ko‘paytirish bilan tekshirib ko‘ring.

431 600 : 830	133 400 : 290	151 300 : 170
461 760 : 1 248	535 200 : 3 345	943 040 : 2 947

4. Bog‘da tushlikkacha 880 kg, tushlikdan keyin esa 730 kg olma terildi. Bu hosilni yashikka joylash kerak. Bir yashikka 35 kg olma sig‘sa, nechta yashik kerak bo‘ladi?

5. Rasm bo‘yicha olmalarni sanab chiqing, so‘ng jadvalni daftaringizga ko‘chirib, uni to‘ldiring. Olmaning navlariga qarab, jadvalni qanday to‘ldirish kerakligini toping.



Ginger gold	Red delicious	Granny Smith
10	16	8

Jadvalga qarab, ustunli diagramma tuzing.

6. Birinchi ustunga yaxlit sonlarni yozing. Qolgan sonlar ichidan juft sonlarni ikkinchi ustunga, toq sonlarni uchinchi ustunga yozing. Har bir ustundagi so‘zlar qanday umumiylikka ega?

400 majnuntol	320 qorag‘at	1 246 nastarin
1 904 na’matak	641 qichitqi	1 033 yalpiz
2 000 saksovul	5 235 moychechak	3 000 000 qayrag‘och

58. Uch xonali songa burchakli bo‘lish

7. Ikkita yashikka jami 40 ta apelsin solingan. Har bir yashikdan bir xil miqdorda apelsin olingandan keyin, birinchisida 15 ta, ikkinchisida 9 ta apelsin qoldi. Dastlab har bir yashikda nechta apelsin bo‘lgan?



40 ta apelsin

8. Hisoblang. Yaxlit javoblarni yozib chiqib, qaysi madaniy ekinlar Osiyo hududidan chiqqanini toping.

Bodom	23 · 47 – 81
Kartoshka	84 · 34 + 44
Sabzi	18 046 : 7 – 578
Yong‘oq	25 512 : 8 + 811
Piyoz	173 847 : 501 – 47
Yeryong‘oq	76 596 : 72 + 28
Jo‘xori	156 000 : 300 – 40
No‘xat	284 000 : 400 + 90

9. Onam bozordan har biri 2000 so‘mdan 3 bog‘ ko‘kat, 6000 so‘mdan 4 kg kartoshka, 12 000 so‘mdan 2 kg guruch va 3 shisha kungaboqar yog‘i olibdi. Barcha xarid 159 000 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bir shisha yog‘ necha so‘m ekan?



2 000 so‘mdan
3 bog‘



6 000 so‘mdan
4 kg



12 000 so‘mdan
2 kg



? so‘mdan
3 shisha

Yondosh mavzu:
parrandalar (qushlar).

Bo‘lish, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, qoldiq.





1. Qaysi holda qoldiqsiz bo‘lish mumkinligini toping.
Bu misollar yordamida uchmaydigan qushlarni bilib olasiz.



tuyaqush
75 : 3



lochin
82 : 5



kivi
91 : 7



kazuar
48 : 16



flamingo
89 : 9



pingvin
96 : 6

2. Ushbu 42, 90, 30, 45, 76, 92 va 102 sonlari ichidan 6 ga bo‘linadiganlarini ajratib oling. So‘ng ular yordamida yaxlit sonlarning bo‘linishiga oid misollar yozing.
Namuna: 42 : 6 = 7.
Har bir misolda bo‘linuvchi, bo‘luvchi va bo‘linmani aytib bering.

3. Ushbu 6, 5, 4, 3, 8, 10 va 7 sonlari ichidan 240 soni bo‘linadigan sonlarni ajratib oling. So‘ng ular yordamida bo‘lishga oid misollar yozing.
Namuna: 240 : 6 = 40.
Har bir misolda bo‘linuvchi, bo‘luvchi va bo‘linmani aytib bering.

59. Bo‘luvchilar va karralilar



Agar *a* soni *b* soniga qoldiqsiz bo‘linsa, u holda *a* son *b* songa karrali deb ataladi, *b* son esa *a* sonining bo‘luvchisi deb ataladi.

4. 12, 20, 45, 60 sonlarining barcha bo‘luvchilarini yozing.
Namuna:

Bo‘luvchilar: 1, 2, 3, 4, 6, 12.

E’tibor bering: $1 \cdot 12 = 12$, $2 \cdot 6 = 12$, $3 \cdot 4 = 12$.
Bir sonning barcha bo‘luvchilarini qanday qilib tez topish mumkin?

5. 3, 4, 7, 8 sonlariga karrali bo‘lgan dastlabki 6 ta ketma-ket sonni yozib chiqing.
Namuna:

Karralilar: 3, 6, 9, 12, 15, 18.


O‘ylab ko‘ring. 3 ga karrali barcha sonlarni yozib chiqish mumkinmi? 1 000 ga karrali sonlarni-chi?

6. Bekatdan hayvonot bog‘ining darvozasigacha bo‘lgan yo‘lakning uzunligi 132 m. Sirojiddin bu yo‘lakda to‘liq 240 qadam tashladi. Abduqodirda esa 220 to‘liq qadam chiqdi. Bu bolalarning qadam uzunligi qanday? Kimning qadami kattaroq?

7. Bu masalalarni yechish uchun ifodalar tuzing. Berilgan qiymatlardan foydalanib, ularni hisoblang.
a) Qushning yuragi uchayotganda n marta, uchmayotgan paytida m marta urardi. Uchish paytida yurak urishi necha marta tezlashadi?
($n = 800$, $m = 400$)
b) Tuyaqushning og‘irligi t kg, imperator pingvini og‘irligi esa b kg. Pingvin tuyaqushdan necha marta yengil?
($t = 120$ kg, $b = 40$ kg)

8. Ifodalarni yozib, ularning qiymatini hisoblang.
a) 25 919 va 41 232 sonlari yig‘indisini 71 ga ko‘paytiring.
b) 1 022 589 va 586 397 sonlari ayirmasini 4 ga bo‘ling.
d) 678 va 85 sonlari ko‘paytmasidan 12 452 ni ayiring.
e) 718 000 sonidan 3 836 va 274 sonlari bo‘linmasini ayiring.

9. Pochta kabutarining oyog‘iga mahkamlangan moslama uning bosib o‘tgan yo‘lini kichraytirilgan holda ko‘rsatadi. Bu chizmada 1 cm 500 m ga teng bo‘lsa, kabutar qancha masofani bosib o‘tgan?



10. Hayvonot bog‘ida qushlarni qafaslarga joylashtirib chiqishmoqchi. Har bir qafasda qushlar soni bir xil bo‘lishi kerak bo‘lsa, bitta qafasga nechta qush joylashishi kerak?
Har bir qafasga 12 tadan, 15 tadan, 18 tadan, 20 tadan joylashtirish kerak bo‘lsa-chi?


33


12


15

11. Qushlar do‘konida to‘tiqush va kanareykalar sotiladi. To‘tiqush kanareykadan ikki baravar qimmat turadi. Bir xaridor 3 ta to‘tiqush bilan 2 ta kanareyka, ikkinchi xaridor esa 3 ta kanareyka va 2 to‘tiqush sotib oldi. Birinchi xaridor 60 000 so‘m ko‘proq pul to‘lagan bo‘lsa, har bir qush qancha turadi?

12. Jadvaldan 105 840 sonining barcha bo‘luvchilarini yozib chiqing. Bo‘luvchilarni o‘sish tartibida joylashtirib, dunyodagi eng tez uchadigan qushning nomini toping.

T	R	A	L	S	N	S	U	A	P
75	26	45	58	98	189	20	32	126	54

60. Amaliy masalalar






Yondosh mavzu:
tabiatni asrash.

Jadval va diagrammalar, murakkab ifodalar, amaliy masalalar.

1. “O‘zbekiston Qizil kitobi”ga jonzotlarning necha turi kiritilganini toping.

Sut emizuvchilar	Qushlar	Sudralib yuruvchilar
		
$85 \cdot 17 - 1\,420$	$1\,536 - 16 \cdot 93$	$768\,000 : 480 : 10$
Amfibiyalar	**Baliqlar**	**Umurtqasizlar**
		
$4\,876 : 53 - 92$	$(1\,152 - 1\,080) : 4$	$(49 - 42) \cdot 11$

“Qizil kitob”ga nechta umurtqali jonzot kiritilgan?

2. 1992-yil 9-dekabrda O‘zbekiston tabiatini muhofaza qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan.
Bunga necha yil bo‘libdi?

3. Amallarning to‘g‘ri tartibini ko‘rsating. Hisoblang.
$90\,311 \cdot (5\,600 : 7 - 459 - 351) + 12\,100 : 10 \cdot (55 - 5 \cdot 10)$


4. Tabiatni asrashga yordam beradigan foydali maslahatlarni o'qib chiqib, savollarga javob bering.

Tish yuvayotganda suvni isrof qilmang!
Bir minutda ochiq jo'mrakda 6 litr suv oqib ketadi. Bir marta tish yuvishning o'zida qancha suvni tejash mumkin? Bir kunda-chi? Bir yilda-chi?

Daraxt eking!
Bitta katta daraxtdan 3 kishiga yetadigan kislorod ajralib chiqadi. Toshkent shahrida 2 394 000 kishi yashaydi. Ularni kislorod bilan ta'minlash uchun nechta daraxt kerak bo'ladi?

5. Jadval va diagrammani o'rganib chiqib, savollarga javob bering.

Qo'riqxonaning nomi	Qaysi viloyatda	Tashkil qilingan sanasi
1. Hisor	Qashqadaryo	1983-yil 9-sentabr
2. Zomin	Jizzax	1960-yil 20-iyun
3. Kitob	Qashqadaryo	1979-yil
4. Qizilqum	Buxoro	1971-yil 24-mart
5. Nurota	Jizzax	1973-yil 4-dekabr
6. Surxon	Surxondaryo	1986-yil 8-sentabr
7. Chotqol	Toshkent	1947-yil 20-dekabr



a) Qaysi qo'riqxona eng katta? U qaysi viloyatda joylashgan?

b) Eng birinchi tashkil qilingan qo'riqxona qaysi? Eng oxirgisi-chi?

d) Qo'riqxonalarning umumiy maydoni qancha?

6. Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag'ishlangan tanlovda qatnashchilarga har bir to'g'ri javob uchun 3 ball beriladi, noto'g'ri javob uchun esa 5 ball olib tashlanadi. Saidabror 20 ta savolga javob berib, 36 ball to'plabdi. U nechta savolga to'g'ri javob bergan?

7. Hozirgi kunda juda ko'p ekologik mashg'ulotlar bor. Ulardan birida qatnashchi ko'chada yugurib ketayotib, axlatlarni to'plab boradi. Yugurish oxirida qatnashchilar kim ko'p axlat to'plagani aniqlanib, fotosuratlari internetga qo'yiladi.
Bu mashg'ulotning nomini toping.



A	$18 \cdot 44$	**G**	$93 \cdot 7$
E	$14\,225 : 25$	**L**	$11\,926 : 89$
I	$687 - 158$	**N**	$790 - 164$
O	$283 + 159$	**P**	$559 + 105$

664	134	442	651	651	529	626	651

8. Maktab o'quvchilari shahar ko'chalarida axlat to'plash musobaqasiga qatnashish uchun uch jamoaga bo'linishdi. Birinchi jamoa 270 ta plastik idish to'pladi, ikkinchisi esa ulardan 60 ta ko'p to'pladi. Uchinchi jamoa esa birinchi va ikkinchi jamoa birgalikda to'plaganidan 3 marta kam idish to'plabdi. Har bir jamoa nechtadan idish to'plagan?

Yondosh mavzu:
kalendar (taqvim).

Soatlar, minutlar, sekundlar.
Vaqt.



1. Har bir faslda necha kun bor? Yilning qaysi faslida kunlar soni farq qilishi mumkin? Nima uchun?

qish bahor yoz kuz



2. Bo'sh katakchalarni to'ldiring. Savollarga javob bering.

1 yil = ☐ kun	1 sutka = ☐ soat
1 oy = ☐ kun	1 soat = ☐ minut
1 hafta = ☐ kun	1 minut = ☐ sekund

a) Bir soatda necha sekund bor?
b) Bir haftada necha soat bor?
d) Bir oyda necha minut bor?
e) Bir yilda necha to'liq hafta bor?

3. Agar:
a) yilning boshidan 17 kun o'tgan bo'lsa;
b) yilning boshidan 37 kun o'tgan bo'lsa;
d) yilning boshidan to'liq 3 oy va 21 kun o'tgan bo'lsa;
e) yilning boshidan 10 hafta o'tgan bo'lsa,
bugun qaysi sana bo'ladi?



61. Amaliy topshiriqlar

4. Bir yilda 527 040 minut bor bo'lsa, bu yil kabisa yili bo'ladimi?

5. Matnni o'qib, savollarga javob bering.

Yer sayyorasi 365 kunda Quyosh atrofida bir marta to'liq aylanib chiqishini hamma biladi. Lekin aslida bunga 365 sutka, 5 soat, 48 minut va 46 sekund ketadi. Demak, taqvimdagi yil haqiqiy yildan salkam 6 soatga kechikar ekan. Bu kechikishning o'rnini to'ldirish uchun har 4 yilda 6 · 4 = 24 soat yoki to'liq bir sutka qo'shib qo'yiladi va bu yil kabisa yili deb ataladi.

Lekin bunday qo'shimcha qilsak, taqvim har yili taxminan 12 minutga tezlashib ketar ekan. Shuning uchun har 100 yilda joriy vaqtdan 12 · 100 = 1 200 minut yoki 20 soatni ayirib tashlash kerak bo'ladi.

Shuning uchun quyidagi qoida kiritilgan:

- *agar yil 4 ga karrali bo'lsa, demak, bu yil 366 kunlik bo'ladi;*
- *agar yil 100 ga karrali bo'lsa, bu yil 365 kunlik bo'ladi;*
- *agar yil 400 ga karrali bo'lsa, bu yil 366 kunlik .bo'ladi.*

a) Bulardan qaysilari kabisa yili ekanini aniqlang: 830, 1700, 1800, 2000, 2022, 2056, 2300, 3000.

b) Yaqin kelajakda keladigan 10 ta kabisa yilini yozing.

6. Rim raqamlarini eslab, jadvalni to'ldiring.

			X			L		XC	IC	C
1	5	9	10	11	40	50	60			100

7. Arab raqamlariga o'tkazib, hisoblang.

XC + L X X IX	C L X IX + C C I I
X X X VI : IX	C – IC
C X X : XL	C C C – C L X I

8. Jadvaldan barcha kabisa yillarini topib, yozib chiqing.

2214	2020	1771	1660	2000	1630
1729	2737	1232	2100	1939	2500
2608	1231	3000	2212	2272	1940
1396	4000	3174	1800	2487	2857

9. Anvar yangi yildan boshlab har ikkinchi kuni sport bilan shug'ullanish, har uchinchi kuni kitob o'qish, har to'rtinchi kuni shaxmat o'ynash, har beshinchi kuni ingliz tilini o'rganish, har oltinchi kuni o'rtoqlari bilan uchrashishni reja qildi.
Bularning hammasi birinchi marta qaysi sanada bir kunga to'g'ri kelib qoladi? Bu yerda bu yil kabisa yili ekanini aytish kerakmi?

10. Sonlarni arab raqamlari bilan yozib, hisoblang.

XII + XXI = 12 + 21 =	LX : X = 60 : 10 = 30
XXII – IX = 22 – 9 =	X · II = 10 · 2 = 20
C : L = 100 : 50 =	C – XL = 100 – 40 =

11. Taqqoslang.
a) 197 minut > 3 soat 7 minut
b) 3 600 sekund < 1 soat 40 sekund
d) 4 soat 40 minut < 300 minut
e) 3 minut 5 sekund < 305 sekund
f) 2 soat > 100 minut
g) 1 hafta = 168 soat

62. Kesmani teng bo‘laklarga bo‘lish






Yondosh mavzu:
relyef.

Ko‘paytirish,
bo‘lish,
pul birliklari,


1. Hisoblang. Joyning nomini uning rasmi bilan tutashtiring.

Tekislik	Chuqurlik	Tog‘	Tepalik	Jarlik
60 : 3+14	90 – 81 : 3	13 · 5	80 : 2 : 4	(45–11) : 2
				
10	65	63	34	17

2. Berilgan kesmalarni daftaringizga chizib, yoniga ularning uzunligini yozing.



3. Bu kesmalarni daftarga ko‘chirib olib, ularning o‘rtasini toping. Buni qanday amalga oshirish mumkin?





Kesmaning o‘rtasini topish uchun uning uzunligini o‘lchab, teng ikkiga bo‘ling. Bu masofani kesmaning bir uchidan o‘lchab, nuqta qo‘ying. Mana shu nuqta kesmaning o‘rtasi bo‘ladi.

Agar bu birliklarda uzunlik teng ikkiga bo‘linmasa, uni kichikroq birliklarga aylantiring.

4. Daftarda mana shu kesmani yasab, uning uzunligini o‘lchang. Bu uzunlikni detsimetr, santimetr, millimetrlarda ifodalang.

A *B*


Kesmaning o‘rtasi *A* nuqtadan qanday masofada joylashgan? Kesmaning o‘rtasini belgilab, uni *C* harfi bilan ifodalang. *AC* uzunlikni detsimetrlarda ifodalash mumkinmi? Millimetrlarda-chi?

5. Berilgan uzunliklarni ko‘rsatilgan o‘lchov birliklariga o‘tkazing.

456 cm = ☐ m ☐ dm ☐ cm
328 cm = ☐ m ☐ dm ☐ cm
450 cm = ☐ m ☐ dm
390 cm = ☐ m ☐ dm

1 km 200 m = ☐ m
7 km 342 m = ☐ m
3 dm 4 cm = ☐ mm
6 dm 3 cm 2 mm = ☐ mm

6. Rasmda ko‘rsatilgan nuqtalar o‘rtasidagi masofalarni o‘lchang. *ACDMN*, *EFT*, *ABEFT* siniq chiziqlarning uzunligini toping.



62. Kesmani teng bo‘laklarga bo‘lish

7. Hazrati Sulton tog‘ining balandligi 4 643 m bo‘lib, Katta Chimyon tog‘idan 1 334 m baland. Katta Chimyon tog‘i Beshtor tog‘idan 990 m past bo‘lsa, Beshtor tog‘ining balandligi necha metr?

8. Tomonlari 1 dm va 4 cm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak yasab, uning har bir tomoni o‘rtasini belgilang. Hosil bo‘lgan nuqtalarni birlashtiring. Qanday shakl hosil bo‘ldi?

9. Hisoblang.

4 m 17 cm + 7 m 21 cm – 12 dm 3 cm
4 m 5 dm 7 cm – 1 m 3 dm 5 cm + 237 cm
(76 dm + 3 m 8 cm) · 27
(89 dm 3 cm – 2 m 7 dm 5 cm) : 6
(4 km 120 m + 3 km 987 m) · 5
(8 km 56 m – 3 km 160 m) : 12

10. Bog‘da kvadrat shaklida hovuz kavlangan. Uning har bir burchagida daraxt ekilgan. Quruvchilar bu hovuzni shunday kengaytirishlari kerakki, uning kvadrat shakli ham, burchaklaridagi daraxtlar ham saqlanib qolishi kerak? Buning uchun nima qilish kerak?



11. *ABCD* siniq chiziq yasang, uning *AB* bo‘g‘ini 4 cm 7 mm, *BC* bo‘g‘ini = 6 cm 3 mm, *CD* bo‘g‘ini = 3 cm 5 mm bo‘lsin. Shu siniq chiziqning umumiy uzunligini toping.

12. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang.

203 · 7 + (10 186 + 12 956) : 3 – 642 · 8





Yondosh mavzu:
havo.

Tengliklar, tengsizliklar, amaliy masalalar yechish.

1. Faqat to‘g‘ri tengsizliklarni belgilang. Biz nafas olayotgan havoda qaysi gazlar ko‘proq?

Vodorod	Azot	Kislorod	Karbonat angidrid
$135 : 9 \times 10$	$17 \cdot 8 > 120$	$16 \cdot 9 \times 154$	$432 : 6 < 75$

2. Daftaringizga tomonlari 4 cm va 8 cm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizing. Bu to‘g‘ri to‘rtburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig‘indisini toping. Uni detsimetr va santimetrlarda ifodalang.

3. Tomonlari a va b bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetrini hisoblash uchun o‘rinli bo‘lgan barcha formulani belgilang.

$P = a + b$	$P = 2 \cdot a + 2 \cdot b$	$P = (a + b) \cdot 2$
$P = a \cdot b$	$P = a + 2 \cdot b$	$P = 2 \cdot (a + b)$

4. Noma’lum kattaliklarni toping.

8 cm	20 cm P — ?	?	22 cm $P = 60$ cm	? $P = 40$ cm 6 cm

5. Rasmga qarab, kompleks masalani yeching.


a) Jadvalni daftaringizda to‘ldiring. Har bir xonaning o‘lchamlarini toping.

	Bo‘yi	Eni
Oshxona		
Yotoqxona		
Bolalar xonasi		
Hammom		
Garaj		


b) Har bir xonaning perimetrini toping.

d) Yotoqxonani ta’mirlash uchun 15 m plintus sotib olindi. Shuncha plintus yetadimi? Buning uchun eshikning enini ham bilish kerakmi?

e) Bolalar xonasining shifti uchun diodli tasma sotib olish kerak. Uni xonaning perimetri bo‘ylab tortib chiqish kerak. Bunday tasmadan necha metr kerak bo‘ladi?



6. Tashqaridagi havo haroratini aniqlang. Bunday harorat yilning qaysi faslida kuzatiladi?



7. Tenglamalarni yeching.

$40 + x = 600 - 150$ $\qquad$ $800 - y = 129 + 311$

$b - (340 + 170) = 820$ $\qquad$ $(470 + 160) - z = 190$

8. Bir shisha sutning massasi 800 gramm, yarim shisha sut esa 450 gramm massaga ega. Bo‘sh shishaning massasini toping.

9. Xonaning havosini tez-tez shamollatib turish kerak. Buning uchun maxsus qurilmalar bor. Bunday shamollatib turish nima deb atalishini topish uchun ifodalarni yeching.

A	$503 + 11 \cdot 2$	**L**	$1\,890 : 10 + 175$
V	$217 \cdot 4 - 422 \cdot 2$	**N**	$471 : 3 - 98$
E	$102 : 6 + 570$	**T**	$(650 - 86) : 4$
I	$432 : 9 + 117$	**S**	$(771 + 389) : 8$
Y	$800 - 23 \cdot 6$	**P**	$980 : 7 + 12 \cdot 4$

24	587	59	141	165	364	525	141	145	165	662	525

10. Kompleks masalani yeching.

Konditsioner 1 soat ishlasa, 1 kilovatt elektr energiya sarflaydi.

a) Agar konditsioner har kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha ishlasa, 5 ish kunida necha kilovatt energiya sarflaydi?

b) Agar bir kilovatt energiya 295 so‘m bo‘lsa, bir hafta uchun qancha pul to‘lash kerak bo‘ladi?

64. Muntazam shakllarning perimetri

Yondosh mavzu:
tabiatdagi go'zallik.

Simmetriya, perimetr,
teng tomonli shakl.






1. Simmetrik jismlarni toping. Ularda nechta simmetriya o'qini ko'ryapsiz?



2. Muntazam shakllar teng tomonli shakllardir. Rasmdan muntazam bo'lmagan shaklni toping.



3. Bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

a) Tomoni 3 cm bo'lgan muntazam uchburchakning perimetri uchta bir xil tomonning yig'indisiga teng.

$P = 3\text{ cm} + 3\text{ cm} + 3\text{ cm} = 3\text{ cm} \cdot 3 = 9\text{ cm}$

b) Tomoni 3 cm bo'lgan muntazam to'rtburchakning perimetri to'rtta bir xil tomonning yig'indisiga teng.

$P = 3\text{ cm} + 3\text{ cm} + 3\text{ cm} + 3\text{ cm} = 3\text{ cm} \cdot \square = \square\text{ cm}$

d) Tomoni 3 cm bo'lgan muntazam beshburchakning perimetri ... ta bir xil tomonning yig'indisiga teng.

$P = \ldots$



Muntazam ko'pburchakning perimetri uning tomoni uzunligining tomonlari soniga ko'paytmasiga teng.

$$P = a \cdot n$$



4. Quyidagilarni toping:

a) tomoni 42 cm bo'lgan muntazam yigirmaburchakning perimetrini;
b) perimetri 1320 cm bo'lgan muntazam oltiburchakning tomoni uzunligini;
d) perimetri 1890 cm, tomoni 9 cm bo'lgan ko'pburchakning tomonlari soni.

5. Bu shakllarni yasash uchun qancha sim kerak bo'ladi?





6. Tenglamalarni yeching.

$x + 808 = 33 \cdot 80$ $\quad$ $(96 - c) \cdot 4 = 164$

$(m - 32) : 7 = 21$ $\quad$ $t - 321 = 7\,488 : 96$

7. Fotosuratlar ko'rgazmasida 18 ta qishki manzara, yana shuncha yozgi manzara namoyish qilinyapti. Qishki va yozgi manzaralar birgalikda qancha bo'lsa, shundan 3 marta kam bahorgi manzaralar. Ko'rgazmaga hammasi bo'lib nechta fotosurat qo'yilgan?

8. Ikkita ustunda berilgan misollardagi qonuniyatlarni topishga harakat qiling. Uchinchi ustun uchun ham xuddi shunday misollar tuzing.

$7 \cdot 8$	$2 \cdot 3$	$5 \cdot 6$
$70 \cdot 800$	$20 \cdot 300$	
$(30 + 40) \cdot (300 + 500)$	$(10 + 10) \cdot (100 + 200)$	

9. Bu yerda so'roq belgisi o'rnida nima turishi kerak?



10. Masalalarning savoliga javob berish uchun ifodalar tuzing.

a) Tomoni 2 dm bo'lgan muntazam o'nsakkizburchakning perimetrini toping.

b) Tomoni 168 dm bo'lgan muntazam yettiburchakning bir tomoni uzunligini toping.

d) Perimetri 80 cm, bir tomoni 16 cm bo'lgan muntazam ko'pburchakning nechta tomoni borligini toping.

e) Uchburchakning kichik tomoni 278 cm, o'rtacha tomoni 354 cm, perimetri esa o'rtacha tomondan 3 marta uzun bo'lgan uchburchakning uchinchi tomonini toping.

11. Me'morlar o'z asarlarida muntazam ko'pburchaklardan foydalanishni yaxshi ko'rishadi. Bu yerdagi binolarning perimetrini topishga harakat qiling. So'ng ularni taqqoslang.



AQSH mudofaa vazirligining binosi (Pentagon) – muntazam beshburchak. Uning tomoni 281 m.



Temuriylar tarixi davlat muzeyi – muntazam o'nburchak. Tomoni 18 m.





Yondosh mavzu:
yer maydonlari

Ko‘pburchak, perimetr.

1. Qaysi shaklning perimetrini topib bo‘lmaydi?










2. Fermer o‘z yerining atrofini devor bilan o‘ramoqchi. Buning uchun necha metr devor qurish kerak bo‘ladi?



3. Bu shakllarda qanday umumiylik bor va nimasi bilan farq qiladi?




Bu shakllarning perimetrini toping. Nimani sezdingiz?

65. Nostandart shakllarning perimetri





Har qanday ko‘pburchakning perimetri tomonlari uzunligining yig‘indisidir. Burchaklari kesik to‘rtburchakka o‘xshagan shakllarning perimetri shu to‘rtburchak tomonlari uzunligining yig‘indisiga tengdir.



$P = a + b + a + b$

4. Bu shakllarning perimetrini toping.





5. Fermer 620 ta olma ko‘chati, undan 317 ta kam nok ko‘chati ekdi. Jami nechta daraxt ekilgan?

6. Taqqoslang.

3 m 7 dm 2 cm + 4 m 5 dm 6 cm ☐ 8 m
7 m 3 dm 2 cm – 2 m 7 dm 5 cm ☐ 4 m
45 dm 7 cm + 1 m 8 cm ☐ 6 m 3 cm
97 dm 3 cm – 1 m 2 dm ☐ 7 m 3 dm 1 cm


7. Teskari amalni bajarib, noma'lum kattalikni toping.
x sonini 27 ga qo'shsak, 386 hosil bo'ldi.
y sonini 7 ga ko'paytirsak, 4123 hosil bo'ldi.
z sonidan 183 ni ayirsak, 7000 hosil bo'ldi.
t sonini 18 ga bo'lsak, 52 hosil bo'ldi.


8. Tenglamalarni yeching.
$(m - 48) : 51 = 63$ $455 : (d + 64) = 5$

9. Ikkita zina bir joydan boshlanib, bir xil balandlikka olib chiqadi. Lekin birining zinapoyalari kattaroq, ikkinchisiniki esa kichikroq. Qaysi zinaga uzunroq gilam-poyandoz kerak bo'ladi?



10. Dala hovli devorining uzunligini toping.





11. Hisoblang.
6 m 1 dm 9 cm + 2 m 7 dm 8 cm ☐ 9 m
5 m 1 dm 8 cm – 3 m 2 dm 4 cm ☐ 2 m
18 dm 9 cm + 3 m 5 cm ☐ 5 m 4 cm
84 dm 2 cm – 3 m 6 dm 2 cm ☐ 4 m 6 dm 2 cm

66. Yuzning xossalari

Yondosh mavzu:
non va g‘alla.

Yuz, kvadrat santimetr,
detsimetr, metr.





1. Bo‘lishni bajaring. Hosil bo‘lgan iborani o‘qing.

-	64 : 8	R	39 : 13	Q	350 : 5
L	81 : 9	I	28 : 2	!	120 : 4
–	45 : 9	M	48 : 4	Z	360 : 6
O‘	21 : 3	A	77 : 7	G‘	100 : 5


20	11	9	9	11	5


3	14	60	70	8	3	7	60	14	12	14	60	30

2. Rasmga qarab, eslang:

a) bir kvadrat detsimetrda necha kvadrat santimetr bo‘ladi?

b) bir kvadrat metrda necha kvadrat detsimetr bo‘ladi?







3. Bo‘sh katakchalarni to‘ldiring.

5 600 m^2 = □ dm^2	203 000 m^2 = □ dm^2
81 000 m^2 = □ cm^2	40 000 m^2 = □ cm^2
654 000 dm^2 = □ cm^2	800 dm^2 = □ cm^2
2 730 000 dm^2 = □ mm^2	120 000 dm^2 = □ mm^2

4. Har bir rasmdan katakli to‘rtburchakning yuzini toping. Bo‘yalgan joyning yuzini toping. Oq kataklarning yuzini toping. Ikkala qismning yuzlarini bir-biriga qo‘shing. Xulosa chiqaring.










To‘rtburchakning yuzi uning bo‘laklari yuzlarining yig‘indisiga tengdir.

5. Bo‘yalgan bo‘laklarning yuzini toping.







6. Rasmda bug‘doy dalasining chizmasi tasvirlangan. Dalaning bir qismidagi bug‘doy o‘rib olingan. Dalaning qancha qismi o‘rilmagan?



7. Piyolada 30 ta don bor – bug'doy va javdar donalari. Istalgan 12 ta donning ichida hech bo'lmaganda bitta javdar donasi, istalgan 20 ta donning ichida esa hech bo'lmaganda bitta bug'doy donasi borligi ma'lum. Piyolada nechta bug'doy, nechta javdar donasi bor?

8. Kompleks masalani yeching.
Har bir band uchun ifoda yozib, qiymatini hisoblang. Olingan ma'lumotlarni keyingi ifodada foydalaning.
a) Bitta bug'doy poyasida 18 ta boshoq bor. Har bir boshoqda uchtadan bug'doy donasi bor. Bitta poyada nechta bug'doy donasi bor?


b) Bir kvadrat metr yerda 300 poya bug'doy bor. Shu bir kvadrat metr yerdan nechta bug'doy donasi chiqadi?


d) Bug'doy dalasining maydoni 200 kvadrat metr. Bu maydondan nechta bug'doy donasi olish mumkin?

e) 900 ta bug'doy donasining massasi 1 kilogramm chiqadi. Bu maydondan necha kilogramm bug'doy olindi?

f) Oliy nav un ishlab chiqarishda hosil bo'lgan unning massasi donning massasidan ikki baravar kam bo'ladi. Bu daladan olingan bug'doydan necha kilogramm un olish mumkin?

9. Rasmlarga qarab, bo'yalgan joyning yuzini toping.





Yondosh mavzu:
asal va asalari.

Yig'indini songa
ko'paytirish, ustun shaklida
ko'paytirish.





1. Bo'lishni bajaring. Yashiringan so'zlarni toping.

L	49 : 7	**S**	56 : 7	**I**	54 : 9
R	45 : 5	**U**	40 : 8	**A**	24 : 12
Y	36 : 9				

2	8	2	7	2	9	6


5	4	2	8	6

2. Aziza asalarining uyasi ajoyib shaklda ekanini ko'rdi. Bu qanday shakl? Bu shaklni daftaringizga chizing.



3. Afzal yuzni guruch yordamida aniqlashni o'rganib olmoqchi. Rasmni ko'rib chiqing. U olti burchakning yuzini qanday qilib topishi mumkin? U nimani o'lchov birligi sifatida qabul qildi?






4. U kvadrat ichidagi guruch donalarini sanab chiqib, 1 cm^2 ga 8 ta guruch donasi sig'ishini aniqladi. Oltiburchakning ichiga 43 ta guruch donasi sig'gan bo'lsa, oltiburchakning kvadrat santimetrlardagi yuzini toping.


5. Afzal xuddi shu usul bilan har xil shakllarning yuzini hisoblamoqchi bo'ldi. Shunga o'xshash shakllarni daftaringizga chizing. Ularning kvadrat santimetrdagi yuzini toping.

	Donalar soni	Yuzi
	?	?
	?	?
	?	?
	?	?
	?	?

6. Bo'yalgan qismlar nima uchun bunday atalishini o'ylab ko'ring.


Yarim


Uchdan bir


Chorak

Qaysi rasmda yarim, uchdan bir va chorak ko'rsatilganini ayting.



7. Asalarichida 12 ta bir litrlik va 23 ta ikki litrlik idishlarga solingan asal bor. Unda jami necha litr asal bor?



8. Soatga qarab, asalari ertadan kechgacha qancha vaqt tinmay ishlashini aniqlang.



9. Bitta uyaning yuzi 5 sm^2 bo'lsa, bu asalari inining yuzini toping.



10. Daftarga bo'yi 4 cm, eni 3 cm bo'lgan uchta to'rtburchak chizing. Birinchi to'rtburchakning yarmini, ikkinchisining uchdan birini, uchinchisining chorak qismini bo'yang.

11. Katta idishdagi asal kichkina idishdagidan uch baravar ko'p. Kichik idishdan ikki litrlik idishlarga asal solingan edi, 48 ta idish chiqdi.
a) Katta idishda qancha asal bor?
b) Ikkala idishda qancha asal bor?



68. Nostandart shakllarning yuzi

Yondosh mavzu:
yog‘och.

Ko‘pburchak, ko‘pburchakning yuzi, bo‘lak.






1. Rasmdagi qaysi daraxtning yog‘ochi ekanligini aniqlang.




460 + 130 · 4	800 – 20 · 12	31 · 20 – 280	720 : 9 + 170
Eman	Olcha	Qayin	Yong‘oq


2. Taxtadan uchburchak tokcha qirqish kerak. Bu tokchaning yuzi qanday bo‘ladi?



3. Bu shakllarning yuzini qanday topish mumkinligini o‘ylab ko‘ring.




4. Bu uchburchakni daftaringizga ko'chirib olib, yuzini toping.



5. O'ylab ko'ring. Bu shakllarning yuzini qanday qilib topish mumkin?

a) shkaf oynasining yuzi;
b) yog'och eshikning yuzi;
d) tortma old devorining yuzi;
e) shkaf barcha old devorining yuzi.



6. Bitta katta daraxtdan 58 kg qog'oz olinadi. Tarozida kichik va katta daftarning vaznini o'lchang. Bu daraxtdan nechta har xil daftar tayyorlash mumkin?

7. Hisoblashlar to'g'ri bajarilganini tekshiring.

$780 - 90 \cdot 6 = 340$ $\quad$ $19 \cdot 10 + 340 : 5 = 268$

$48 - 24 : 6 = 4$ $\quad$ $30 - 12 : 4 = 27$

8. 80 kilogramm makulatura bitta daraxtni kesilishdan saqlab qoladi. 7 ta o'quvchi 5 kilogrammdan, yana uchtasi 9 kilogrammdan makulatura olib kelishdi. Bitta daraxtni qutqarib qolish uchun qolgan o'quvchilar yana qancha makulatura olib kelishi kerak?

9. O'rmonchi va uning yordamchisi yumaloq yalanglikdagi daraxtlarni sanashi kerak. Ular bu yalanglikning har xil joyidan, lekin bir tomonga qarab yurib borishyapti. O'rmonchi uchun yettinchi bo'lgan daraxt uning yordamchisi uchun yigirmanchi bo'ldi, yordamchi uchun yettinchi bo'lgan daraxt esa o'rmonchi uchun 93-bo'ldi. Bu yalanglikda nechta daraxt bor ekan?

10. Kompleks masalani yeching.
Duradgor tokcha yasash uchun chizma tayyorlab oldi.

a) Har bir detaining yuzi qanday?

b) Bu tokchani yasash uchun qancha material kerak?

d) Uzunligi 28 dm, eni 20 dm bo'lgan polkaga quyida berilgan taxta yetadimi?





11. Hisoblang. Javoblarni o'sish tartibida joylashtirsangiz, qaysi daraxtning yog'ochi kamalak rangida ekanini bilib olasiz.

A	$90 - 9 \cdot 3$
V	$60 - 36 : 6$
I	$64 + 39 : 3$
K	$75 - 8 \cdot 2$
L	$27 + 5 \cdot 8$
P	$80 - 26 : 13$
T	$5 \cdot 9 + 45$
E	$79 - 7 \cdot 5$



Biz nimalarni bilib oldik? Nimalarni o‘rgandik?

Biz sonlarni burchakli bo‘lishni o‘rgandik.

1. Bo‘lishni bajaring. Qanday so‘z hosili bo‘ldi? Uning ma’nosi nima?



G) 26 325 : 25



I) 17 680 : 34



Z) 16 660 : 17



L) 13 692 : 21



O) 47 436 : 59



Y) 23 140 : 13

980	804	804	652	804	1053	520	1780	284

Jadvaldagi song qanday harf mos keladi?



A)



U)



O)



I)


Biz bo‘lishdan chiqqan qoldiqni topishni o‘rgandik.

2. Nur yordamida masalaning yechimini ko‘rsating. Fillar bir kunda 7 kilometrgacha yo‘l yurishadi. Ular 23 kilometr masofani necha kunda bosib o‘tishadi? Oxirgi kun ular necha kilometr yurishadi?




Biz istalgan shaklning perimetrini topishni bilib oldik.

3. Yaylov uchta bir xil kvadrat shaklidagi bo'lakka bo'lingan. Tashqi devorning uzunligini toping.



Biz istalgan shaklning yuzini topishni bilib oldik.


4. Dalalarning umumiy yuzini toping.




Endi biz amaliy masalalarni yechishni bilamiz.

5. Yangi tug'ilgan fil bolasining massasi 120 kg. Katta filning massasi 4500 kg. Filchaning massasi katta fildan necha marta kichik?

1. Uch tomondan rasmdagidek ko'rinadigan shaklni toping.



2. Venn diagrammasi yordamida yeching.
Temurning o'rtoqlari sport to'garaklariga qatnashadi. 10 ta o'rtog'i futbol to'garagiga, 8 ta o'rtog'i basketbol to'garagiga qatnashadi. Agar Temurning 12 ta o'rtog'i bo'lsa, nechta bola ikkala to'garakka ham qatnashadi?



3. Diyora har kuni tokchalarning changini artayotib, mana bu buyumlarni har xil tartibda qo'yib chiqadi. Diyora bu tartibni necha kungacha takrorlamasligi mumkin?



4. 10 ta ustaga qilgan ishi uchun tanga solingan 11 ta bir xil qop berildi. Shunda har biriga bittadan qop va yana 5 ta tanga to'g'ri keldi. Bir qopda nechta tanga bo'lgan?

5. Sehrli kvadratni shunday to'ldiringki, har bir qator va har bir ustundagi sonlar yig'indisi 60 ga teng bo'lsin.

17		19
	20	
21		

6. Rustam bir kitobda qiziqarli masalani o'qib qoldi. 2 tanganing o'rnini shunday almashtirish kerakki, uchburchak kvadratga aylanib qolsin. Bu masalani yecha olasizmi?



7. Ko'ngillilar oziq-ovqat va kiyim-kechak tarqatishga yordam berishyapti. Ularda pallali tarozi bilan 8 kg un solingan qop bor, tarozi toshlari yo'q. Qanday qilib shu tarozi yordamida roppa-rosa 2 kg unni xaltaga solish mumkin?






8. Tangram bo'laklaridan kit shaklini yasang. Unda nechta to'g'ri burchak bor?






9. Anvar bilan Boris o'yinchoqlarini almashishdi. Anvar yuk to'kadigan mashinasini 5 ta askarchaga, Boris esa bitta askarchasini 6 ta rezina koptokka almashdi. Agar yuk to'kadigan mashinani 10 ta qog'oz samolyotga almashish mumkin bo'lsa, bitta shunday samolyotni nechta koptokka almashsa bo'ladi?

10. Boshqotirmani yeching.
Katta shakldan bir nechta kvadratni shunday olib qo'yish kerakki, kichik kvadrat hosil bo'lsin. Bu yerdagi qaysi shaklni hosil qilib bo'lmaydi?



11. Har bir shaklning vaznini toping.



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Kirish

40. Yig'indini songa bo'lish 4
41. Ikki xonali sonni bir xonali songa bo'lish 7
42. Qoldiq 10
43. Qoldiqli bo'lish 13
44. Burchakli bo'lish 16
45. Burchakli bo'lish 19
46. Burchakli bo'lish 22
47. Masalalar yechish 25
48. Ko'p xonali sonlarni qoldiqli bo'lish 28
49. O'rtasida 0 raqami bor sonlarni bo'lish 31
50. 0 bilan tugagan sonlarni bo'lish 34
51. Yaxlit sonlarni bo'lish 37
52. Bo'lishning geometrik ma'nosi 40
53. Masalalar yechish 43
Yakuniy dars 46
54. Ikki xonali sonni ikki xonali songa burchakli bo'lish 48
55. Ikki xonali songa burchakli bo'lish 51
56. Uch xonali songa burchakli bo'lish 54
57. Uch xonali songa burchakli bo'lish 57
58. Uch xonali songa burchakli bo'lish 60
59. Bo'luvchilar va karralilar 63
60. Amaliy topshiriqlar 66
61. Amaliy topshiriqlar 69
62. Kesmani teng bo'laklarga bo'lish 72
63. To'g'ri to'rtburchakning perimetri 75
64. Muntazam shakllarning perimetri 78
65. Nostandart shakllarning perimetri 81
66. Yuzning xossalari 84
67. Yuzni topishning nostandart usullari 87
68. Nostandart shakllarning yuzi 90
Yakuniy dars 93
Mantiqiy masalalar 95

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F.I.Sh	O'quv yili	Darslikning olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1	Uraimova	3D				
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

Repyova Irina Vladimirovna

Matematika
3-sinf
II qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrirlar:	*N.Gaipov,*
Badiiy muharrir	*A.Sobitov*
Musahhih	*X.Serobov*
Rassomlar:	*A.Pan, T.Daminov, R.Ismailova, E.Aganesyan*
Kompyuterda sahifalovchi	*I.Tursunov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 10.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60×84/8. Kegli 14 n/shponli.
"Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m^2 qog'oz.
Shartli b.t. 16. Hisob-nashriyot t. 2,73.
Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-528.
"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.